

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Psixologiya kafedrası

Qo'lyozma huquqida

UDK: 152.82.38

SHUKUROVA SHAXNOZA

**Mavzu: O'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirish
5A 110902-«Psixologiya» ixtisosligi magistrlik darajasini olish uchun**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: p.f.n dotsent M.Xalimova

Andijon-2013

**Mavzu: O'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirish
Reja.**

Kirish.

1.BOB. O'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning nazari metodologiyasi

1.1. Etnopsixologik xususiyatlar ijtimoiy-psixologik muammo sifatida.

1.2. Milliy psixologiya tarkibi va milliy psixologik xususiyatlarning shakllanishi.

1.3. Xorij va sobiq sovet psixologlarining tadqiqotlarida etnopsixologik xususiyatlarni talqini.

1.4 Milliy psixologik xususiyatlarni shakllantiruvchi omillar.

Birinchi bob bo'yicha xulosa.

2.BOB. O'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning ijtimoiy shart sharoitlari

2.1. O'smirlarning yoshga xos psixologik xususiyatlari

2.2.Milliy-etnik xususiyatlarning yoshga xos jihatlarini shakllanishi va rivojlanishini o'rganish usullari

2.3. Millatlarga xos qadriyatlarning shaxs ongiga psixologik ta'siri..

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.

3.BOB. O'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning amaliy asoslari

3.1. O'quvchilarda vatanga sadoqat hissini shakllantirish dolzarb pedagogik va psixologik muammo sifatida.

3.2. Empirik tajribalar olib borish va natijalarni taxlil qilish.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa.

Xulosa.

Tavsiya.

Foydalanilgan adabiyotlar Ilovalar.

MUNDARIJA

	Kirish.	3-8
I -BOB	O‘smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning nazariy metodologiyasi	9-
1.1	Etnopsixologik xususiyatlar ijtimoiy-psixologik muammo sifatida.	9-11
1.2	Milliy psixologiya tarkibi va milliy psixologik xususiyatlarning shakllanishi.	12-16
1.3	Xorij va sobiq sovet psixologlarining tadqiqotlarida etnopsixologik xususiyatlarni talqini.	17-28
1.4	Milliy psixologik xususiyatlarni shakllantiruvchi omillar.	29-33
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa.	34
II- BOB	O‘smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning ijtimoiy shart sharoitlari	35-
2.1.	O‘smirlarning yoshga xos psixologik xususiyatlari	35-41
2.2	Etnik xususiyatlarning yoshga xos jihatlarini shakllanishi va rivojlanishi.	42-50
2.3	Millatlarga xos qadriyatlarning shaxs ongiga psixologik ta’siri..	51-
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.	
III-BOB	O‘smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning amaliy asoslari	
3.1	O‘quvchilarda vatanga sadoqat hissini shakllantirish dolzarb pedagogik va psixologik muammo sifatida.	
3.2	Empirik tajribalar olib borish va natijalarni taxlil qilish.	
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.	
	Umumiy xulosalar va tavsiyalar	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	
	Ilovalar.	

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi:

Respublikamizda o'ziga xos izchillik bilan olib borilayotgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da har bir shaxsninig o'ziga xos ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan etnopsixologik jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu jarayon esa ma'lum qadriyatlar asosida shakllanuvchi shaxs kamolotining ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zahirida eng avvalo shaxsning ijtimoiy taraqqiyoti, o'zligini anglash va o'z mentalitetiga xos ezgu orzularni amalga oshirishga intilish masalalari yotadi.

Bu masalaning yechimi esa yoshlar ongida milliy qadriyatlarga asoslangan fidoiylik, vatanparvarlik, bunyodkorlik va o'zbek etnopsixologiyasiga mos bag'rikenglik tushunchalarini singdirish orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi davrda o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o'rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi.

O'smirlarning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Bu jarayon o'z navbatida dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda ahloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan, stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o'rtasida sodir bo'ladi. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smirlar shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo'qotish mumkin. Bu davr insonning kamoloti yuqoriroq bosqichiga ko'tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o'smirdan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, ob'ektlar o'rtasidagi ichki munosabatlarni o'rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, o'zini o'zi nazorat qilish, baholash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi. Psixologlarning fikricha, o'smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatining mahsuli deb qarash mumkin emas, chunki o'sishning biologik va psixologik qonuniyatlarini inkor qilishga ijtimoiy shart-sharoitlar va determinizm qonuniyatlari yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, o'smirlilik davrining muayyan hech o'zgarmas xususiyati va xarakteristikasi mavjud emasligini e'tirof etish zarur.

O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta'siri bo'lgan ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga o'smirlarning jismoniy o'sishi xususiyatlari, jinsiy yetilishining iqlim va milliy-etnografik omillari ta'siri ham borligi ma'lum. Shu jihatdan tanlagan tadqiqot ishimiz mavzusi bugungi kun dolzarb masalalaridan biri bo'lgan o'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning psixologik omillarini nazariy va amaliy yoritishga bag'ishlangan.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi; Ijtimoiy psixologiya va Psixologiyada etnik xususiyatlarni shakllantirish va ularga munosabat muammosi doimo dolzarb ijtimoiy-psixologik masalalardan biri bo'lib kelgan. Ijtimoiy psixologiyada etnik xususiyatlar asosan rus psixologlari G.M.Andreeva, N.N.Bogomolova, Ye.V.Shoroxovalarning ayrim tadqiqotlarida birlamchi guruh negizida o'rganilgan. Shuningdek, B.D.Parigin, A.I.Antonov, N.N.Obozov, Yu.Ye.Aleshina, S.I.Golod, O.A.Karabanova, g'arb olimlaridan G.Roland, D.Vagen, Ye.Burgess, L.Terman, M.Odema, P.Boennen, R.Veyss, E.Tiydlar etnik masalalarini, yoshga xos jihatlarini, o'smir yoshida munosabat motivlarini o'z ilmiy ishlarida ochib berishga harakat qilganlar.

O'zbekistonlik psixologlardan M.G.Davletshin, E.G.G'oziev, G'B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, N.S.Safaev, B.M.Umarov, M.M.Mamatov, X.M.Alimov,

N.A.Sog'inov, N.Salaeva, R.S.Samarov, O.T.To'raeva, E.Sh.Usmanov, M.A.Utepbergenov, G.T.Yadgarova, Sh.Sh.Jo'raeva, M.X.Fayzieva, F.R.Ro'ziqulov, M.S.Salaeva, R.X.Dushanov, N.X.Lutfullaeva, A.T.Qodirova, T.B.Norimbetov, G.A.Qurbonova va boshqalar o'z tadqiqotlarida zamonaviy milliy xususiyatlarning yoshlar ongiga singdirilishi va uning psixologik xususiyatlari, milliy status va rollar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi, o'smir yoshda yuzaga keladigan nizolarining etnik xususiyatlari, o'zbek etnopsixologiyasining ba'zi ko'rinishlariga oid diqqatga sazovor ilmiy fikrlarni bayon qiladilar.

Olimlarimiz tomonidan milliy psixologiya muammosi bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilganiga qaramasdan, yoshlarda, xususan o'smirlik yoshida etnopsixologik xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish muammolari ijtimoiy-psixologik va milliy psixologik jihatdan yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: O'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning psixologik omillarini nazariy va amaliy tahlil qilish.

Tadqiqotning vazifasi:

1. Mavzu bo'yicha ilmiy manbaalar ustida ishlash, nazariy malumotlar to'plash, nazariy taxlilni o'tkazish. O'smirlar psixologiyasi muammolarini olimlar tadqiqotlarining psixologik taxlili
2. O'smirlik yoshida etnopsixologik xususiyatlarini amaliy metodikalar asosida taxlillar olib borish.To'plangan ma'lumotlar asosida tadqiqot metodlarini tanlash va dastlabki tajribalar o'tkazish.
3. Olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish.
4. Xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Taxminimizcha,

- O'smirlik yoshida ma'lum bir tashqi ta'sirlarning muhimligi va ularning shu xususiyatga moslashuvining etnopsixologik xususiyatlari ma'lum bir etnos urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini, etnomadaniy xulq-atvor shakllari orqali namoyon bo'lishi ehtimol;

- O'smirlik yoshida milliy xususiyatlarni anglash jarayoni har bir oiladagi o'ziga xos psixologik muhit, tartib-qoidalar, udumlar bilan bir qatorda o'smirning individual-tipologik xususiyatlari, ijtimoiy-psixologik jihatdan yangi ijtimoiy rollarga, o'zaro ta'sirga kirisha olish, ta'lim tarbiyaning o'ziga ta'siri va milliy majburiyatlarga moslashish malakalari ham ahamiyatli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot ob'ekti: O'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirish jarayonidan iborat.

Tadqiqot predmeti: O'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning psixologik mexanizmlari va omillarini psixologik qonuniyatlar asosida o'rganish.

Tadqiqot bazasi; Qo'rg'ontepa shahar №3, №1, umumta'lim maktablarining 9 sinf o'quvchilari jami 90 nafar o'quvchi.(60 uzbek, 10 qirg'iz, 20ta rus)

Ilmiy yangiligi:

1. O'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning o'ziga xosligi zamonaviy talqin etiladi.
2. Etnik xususiyatlarning shakllanishi va tasir etishi o'smirlik yoshida muxim ahamiyat egaligi ilmiy asoslanadi.
3. Umummilliy qadriyatlar, milliy urf-odatlarini mazmun mohiyatini anglash jarayoni o'smirlik yoshida qanday ahamiyat kasb etishi asoslanadi.
4. Nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligi taminlanadi.

Tadqiqotning metodologik asosi:

Tadqiqotimizning metodologik asosini ong va faoliyat birligi tamoyili (A.N.Leontev), determinizm tamoyili (S.L.Rubinshteyn), shaxsning psixologik va ijtimoiy-psixologik moslashuvi bo'yicha jahon psixologiyasida ilgari surilgan konsepsiyalar (Z.Freyd, K.Rodgers, A.Maslou, G.M.Andreeva, A.V.Lazurskiy, D.V.Olshanskiy) hamda mamlakatimiz psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova va boshqalarning ilmiy g'oyalariga tayanadi. Shuningdek, biz tadqiqotimizda mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan milliy xususiyatlarga doir fikrlari, Sharq mutafakkirlarining etnopsixologik masalalariga bag'ishlangan qarashlariga asoslandik. Shuningdek, buyuk psixologlarning etnopsixologiya sohasida olib borgan tadqiqot ishlari, etnopsixologiyaga doir nazariy g'oyalar, qonun hujjatlari ilmiy tadqiqotimizning metodologik

Ximoyaga olib chiqilayotgan asosiy xolatlari:

- 1.O'smirlar ongida milliy xususiyatlarni shakllantirish yoshga xos xususiyatlardan kelib chiqib muxim ahamiyatga ega bo'ladi.
- 2.Etnik xususiyatlarning shaxs faoliyatiga ta'siri uning o'z millatiga bo'lgan munosabatlarini o'zgartiradi.
- 3.Milliy psixologiyaning ta'lim tizimidagi o'rni o'quvchilarga milliy urf odatlar, milliy qadriyatlarni anglash va o'z millatiga yuksak xurmatini shakllantirish bilan belgilanadi.

Ilmiy tadqiqotning metodi:

Tadqiqot ishini olib borishda quyidagi metodlardan foydalanildi. Shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi metodlar, empirik metodlar, kuzatish metodi, eksperiment metodi, suhbat metodi, sotsiometriya metodi, modellash metodi. IPS.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati:

Etnopsixologik xususiyatlar haqidagi nazariy bilimlar boyitiladi. Umummilliy qadriyatlar va milliy urf odatlar haqidagi, falsafiy, ijtimoiy, psixologik qarashlarning nazariy va amaliy ahamiyati o'rganiladi va ularning zamonaviy taqini yuzasidan malumotlarga ega bo'ladilar. Etnopsixologiya va ijtimoiy psixologiya fani nazariy manbaalar bilan boyitiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: O'smirlar ongida etnopsixologik xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish usullari ishlab chiqiladi va amaliyotda qo'llash imkoniyati yaratiladi. O'smirlarda milliy urf-odatlariga, milliy qadriyatlarga nisbatan xurmat tuyg'usi oshiriladi.

Tadqiqotni ommalashtirilishi: Ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha olingan natijalarning asosiy qismi 2012-2013 yil Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti, "Psixologiya" va "Pedagogika" kafedralari ilmiy-uslubiy seminarlarida muhokama qilindi. Tajriba maktab pedagogik kengashlarida hamda dissertatsiyaning chop etilgan ishlarida bayon etilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va hajmi Magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 bob, 9 bo'lim, xulosa, tavsifiya va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Umumiy hajmi sahifadan iborat.

1.BOB. O'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning nazari metodologiyasi

1.1.Etnopsixologik xususiyatlar ijtimoiy-psixologik muammo sifatida.

Millat va millat bilan bog'lik bo'lgan ko'plab omillar ijtimoiy va siyosiy hayotda muhim rol o'ynab kelgan va bundan keyin ham uzoq davrgacha o'z ahamiyatini yuqotmaydi. Olimlarning ko'rsatishicha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining turli bosqichlarida turgan to'rt mingga yaqin millat, elat va turli xalqlar mavjud ekan. Ularning xar birini o'z tarixi, madaniyati va milliy qadriyatlari mavjuddir. Ularni o'rganish millatlararo munosabatlarini tashqil qilishda, turli iqtisodiy, madaniy aloqalarni o'rnatishda katta yordam beradi.

Lekin yaqin davrgacha bizning ijtimoiy fanlar tizimida milliy masalalar va unda psixologik omillarning tutgan o'rniga yetarlicha baho berilmay kelindi. Ayrim hollarda esa asossiz ravishda inkor etildi. Xatto ba'zi bir tadqiqotchilar milliy xususiyatlar, etnopsixologiya masalalarini o'rganishga shubxa bilan karashdi. Bunda ular etnopsixologiya masalalarini o'rganish bir xalqni maktab, ikkinchisini kamsitishga olib kelishi, irqchilik, millatchilikni kelib chiqishiga sabab bo'ldi, deb xavotirlanishdi. Bu hadiksirashda ma'lum asos ham bor edi. Etnopsixologiyaga oid ayrim tadqiqotlarda mualliflar o'z millatlarini xaddan tashqari ko'klarga ko'tarib yuborish, boshqa qo'shni xalqlardan ustun qo'yish xollari bo'lganki, bu tabiiy turli noroziliklarni tug'ilishiga sabab bo'lgan. Shuning bilan birgalikda xalqlarning voqelik va tabiatni idrok qilish, kiyinish, avlodlar tarbiyasi, avlodlar o'rtasidagi munosabatlardagi o'ziga xosligini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Etnik o'ziga xosligini inkor etish, milliy munosabatlarda hisobga olmaslik turli salbiy munosabatlarni, xatto etnik nizolarni keltirib chiqaradi.

"Etnopsixologiya"-etnologiya va psixologiya fanlarining qo'shilishidan tashqil topgan bo'lib, grekcha "ethnos" xalq, qabila, "psixologiya"- rux ilmi, so'zlarining umumlashishidan milliy psixologik degan ma'nolarni anglatadi. Bu fan ma'lum millat va etnik birlik vakillarining o'ziga xos ruxiy qiyofasi, xulq-atvorining, zamonaviy termin bilan aytgach, "mentalitetini" o'rganadi. Xar bir xalqqa xos bo'lgan milliy xarakter, urf-odat va an'analar, milliy tuyg'ular va did, etnik ong va milliy o'zini -o'zi anglashni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, o'zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham etnopsixologiyani o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqotchilar tomonidan etnopsixologiya masalalarini o'rganishda ma'lum muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lsa ham, lekin uning ko'p muammolari xali o'zining yechimini to'la topgan emas. Shulardan biri - milliylik va baynalmillik xususiyatlarining o'zaro munosabatidir. Millat, sinflar va turli ijtimoiy guruxlarni o'rganishda faylasuflar, sotsiolog va tarixchilar, asosan, ularning moddiy va ma'naviy madaniyati, tarkibi, ijtimoiy munosabatlariga e'tiborni qaratgan bo'lsalar, psixologlar esa, shaxs psixologiyasini o'rganish bilan cheklanib qolishgan. Ayrim psixologlar esa (S.L.Rubinshteyn) umuman ijtimoiy va etnopsixologiya fanlarining mavjud bo'lishligini shubha ostida olgan.

Etnopsixologik muammolarni tadqiq etuvchi jahon olimlarining juda ko'pchiligi, bu muammolarni o'rganish qiyin ekanligini, bu sohada uchraydigan murakkabliklarni takidlashadi. Chunki etnopsixologik xususiyatlari empirik tadqiq etish qiyin. Barcha murakkabliklarni qamrab oluvchi metodlar yaratilmagan. Boz ustiga bir mamlakatda, boshqa bir madaniyatni o'rganish uchun yaratilgan metodlar, ikkinchi bir xalqlarni o'rganishda natija bermasligini, xatto, qarama-qarshi ko'rsatkich berishi mumkin. Bu sohadagi muammo yana shundaki, bir etnos ichidagi turli sinflar, sotsial guruxlarda milliy xususiyatlarning namoyon bo'lishi ma'lum darajada bir biridan farqlandi. Shuning bilan birgalikda, tadqiqotchi etnik psixologiyadagi o'ziga xoslik, boshqa etnik guruxlardan farq qiluvchi maxsuslik va umumiylik tomonlarni ochib bera olishi kerak. Va nihoyat, etnopsixologik xususiyatlar qotib qolgan, o'zgarmaydigan narsa emas. Ular ma'lum bir ijtimoiy o'zgarishlar natijasida, ayrim bir xususiyatlarini o'zgartirishi, yangi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi xislatlarni xosil qilishi mumkin.

XX asr boshlaridan e'tiboran davom etgan siyosiy-ijtimoiy tanazzul va bir yarim asrlik mustamlaka davrlari mobaynida o'zbek xalqi o'zligini asrash, milliy birligini ma'naviy hamda axloqiy yaxlitligini saqlab qolish borasida mislsiz matonat ko'rsata bildi. Milliy birlikni muhofaza etish jarayonlari zaiflashgan davlat homiyligida emas, balki asosan aholi turli

tabaqalariga mansub oddiy insonlar, ziyolilar, hunarmandlar, dehqonlar, umuman olganda jamiyat kuchi vositasida amalga oshirilib kelindi va quyidagilarda o'z ifodasini topti:

-O'zbek xalqi tanazzul va mustamlaka davrlaridan o'zining etnik yaxlitligini saqlagan holda chiqa bildi;

-Xalqimiz ma'naviyatining yorqin ifodasi bo'lgan urf-odatlar,

-An'analar, rasm-rusumlar, marosim va ma'rakalar tizimi saqlab qolindi;

-O'tmish madaniyatimizning o'lmas obidalar, buyuk mutafakkirlarimiz qalamiga mansub bebaho asarlarning katta qismi, vahshiylarcha talon-tarojlarga qaramay turli tadbirlarni qo'llash orqali asrab-avaylandi va avlodlarga yetkazildi;

-Til birligi va tozaligini uzoq yillar davomida maxsus o'tkazilgan ta'sir va tayziqlarga qaramay saqlashga erishildi;

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turli xil millat ma'naviyatiga yod bo'lgan axloqiy kodekslar, turmush tarzining o'zgacha uslublari singdirish borasidagi uzluksiz tazyiqlarga qaramay xalqimiz o'zining bag'rikengligi, saxovatpeshaligi, mehmondo'stligi, sabr-bardoshlilik singari chin insoniy fazilatlarini yo'qotmadi.

1.2. Milliy psixologiya va uni tarkibi

O'zbek xalqining milliy etnik ong xususiyatlariga ta'rif berganimizda uning sifat va fazilatlarini tarannum etuvchi, kishilarning bir-birlariga bo'lgan insoniy munosabatlari, do'st-birodarliklari, axil-ittifoqliklari, bir-birlariga sadoqatliklarini anglashlikni e'tirof etishimiz kerak. Odamning ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi va butun atrofda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga munosabati hamda qarashlari uning ongida yuz beradi. Shu bo'sda ham ong so'zi tilimizda aql so'ziga yaqinroq ko'rinishda qo'llanib kelinadi. Insonning fikrlash qobiliyati nazarda tutilganda, ong va aql atamaları bildirgan ma'nolar bir-biriga xos bo'lib, ong ham, aql ham odam miyasining maxsulidir. Ko'rib turibsizki, etnoong ikki so'z birikmasini tashqil etib, biri

- -e t n o, ya'ni yunoncha "elat, xalq" degan ma'nolarni bildiradi.
- Ong-psixologik nuqtai nazardan odamga xos bo'lgan oliy darajadagi aqliy sifat ko'rsatkichi, ya'ni ong psixikaning oliy, uni yaxlit bir xolga keltiruvchi shakli, kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan til yordamida doimiy muloqot qilish jarayonidagi shakllanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi.

Ong ta'rif o'z strukturasi, tuzulishi va shu bilan birga uning muxim psixologik ta'riflarini ham o'z ichiga oladi. Psixologiya fani nuqtai nazaridan, Sharq va G'arb allomalarining ta'rif va izoxlariga tayangan xolda ong va unga berilgan nomining o'ziyoq birinchi ta'rif hisoblanadi. Ong ta'rifining ikkinchi izohi-unda sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasida aniq farqlanishning o'z ifodasini topishidir. Psixologiya fani ong ta'rifini izohlar ekan odam o'z xatti-xarakatlarini va umuman o'zini o'zi ongli ravishda baholaydi, deb masalani chuqur yoritishga xarakat qiladi.

Ong ta'rifining uchinchi ko'rinishi-odamning maqsadni ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashidir. Ongning to'rtinchi ta'rifining tarkibiga muayyan munosabatlarning kirganligidir. Bu borada biz kishi ongiga muqarrar ravishda xis-tuyg'urlar olami kirib kelishini tushunamiz. Bunday xolda jamiyatda sodir bo'layotgan murakkab ob'ektiv jarayonlar davomida eng avvalo insonning o'zini ham ishtirok etishi, ijtimoiy munosabatlarni yuksaltirishda esa uning faoligi, bo'layotgan tub o'zgarishlarni chuqur anglash va fikr yuritish kabi asosiy omillarga aylanishi kerakligini e'tirof etishimiz kerak.

Yurtboshimiz Muxtaram Islom Abduganievich Karimov "Farzandlarimiz bizdan ko'ra aqlli, kuchli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart" - deb xikmat qiladilar. Shu ma'noda ham biz yuqoridagi mavzumizni maxalla turmush madaniyatida kishilarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning milliy ong munosabatlarini ochishni maqsad qilib qo'ydik.

"Jamiyat oiladan boshlanadi, davlat esa maxalladan"-degan xalqimizning mumtoz nakli bor. Kundalik ijtimoiy hayot isbotlab keladiki, oila maxallaning negizi, uning kuchi va quvvati, obro'si hamda sharafigidir. Oila o'zida milliy urf-odatlar va an'analarni mujassamlashtiradi, ularni saqlab qoladi va avloddan-avlodga uzatadi. Katta bo'lish va bolalarni tarbiyalash bir-biridan ajratib bo'lmas jarayondir. Bolalar maktabga boradigan paytga kelib, ularning ko'p odatlari va

tasavvurlari asosan shakllanib bo'ladi. Shaxs asoslari mustaqillik darajasi, turli jins, yosh va millat odamlarga munosabat, madaniy va ma'naviy qadriyatlar va afzalliklarni xurmatlash, shaxsiy odatlar erta bolalikdanoq shakllanib bo'ladi. Aksariyat o'zbek oilalarida, bolalarga ona suti bilan birga mexnatsevarlik, kattalarga, qo'shnilarga, jamoat fikri va muallim-ustozlarga nisbatan chuqur xurmat, to'g'ri so'zlik, jamoatchilik, o'zaro yordam va o'zaro qutqarish, mustaxkam oila qurish va uni saqlab qolish, ta'lim olishga intilish tuyg'ulari bilan tarbiyalanadi.

Oila juftlik konuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o'zi yoxud bir ayolning o'zi oila bo'la olmaydi. Oila eru-xotindan tashqari urning ota-onasi ya'ni qaynota va qaynonalar, farzandlar, uka va singillardan iborat ko'p bo'g'inli xonadondir. Uning xar bir a'zosi o'z mavqeiga ega, shu oilaning ichki intizomiga bo'ysunib yashaydi. Shu ma'noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir.

Ma'lumki, Vatansiz oila, oilasiz Vatan bulmaydi, jamiyatdagi bu ikki narsa bir biri bilan uzviy bog'lanadi va biri ikkinchisini tuldiradi". Shu ma'noda oila - Vatan ichra Vatan, mexnat tufayli obod va ozod muxtor go'sha bo'lib, Vatan bag'rida, Vatan nazari ostida, Vatan ximoyasida barkarorlik kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, oilaning qo'shnichilik, maxalladoshlik munosabatlarida, shuningdek, maxalla-ko'y amal qilayotgan to'y-yu ma'rakalarga qatnashish, ularga xos rasm-rusmlar va urf-odatlarga rioya etishni zaruriyatga aylantiradi, ommaviy xasharlar, sayillar va bayramlar kabi an'analarda ishtirok qilishni ma'naviy majburiyatga aylantiradi. Bu jarayon chuqurlashgan sayin oila ham mustaxkamlanib boradi, piravord-oqibatda millat yoki xalqqa daxldor oila iftixori yuzaga keladi va shakllanadi. Xalqimizda ko'rinadigan oilaparvarlikning tom ma'nodagi asoslari shularda zuxur topgan. Shunisi kuvonarlik, xukumatimiz tomonidan jamiyat diqqat-etiborini, o'zbek milliy oilasini mustaxkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlarning belgilanayotganligi va amalga joriy etilishi ham aslida xuddi shu o'zbekona oilaparvarlik asoslarini xar taraflama rivojlantirish negizida soglom va bakuvvat demokratik jamiyatni barkaror etish maqsadini kuzlaydi.

Ijtimoiy integratsiyaning universal mexanizmi - maxalla bo'lib, u qo'shnilarni hamjihatlik va xalq an'analarga sobit izdoshlik asoslarida birlashtiradi. Ularning milliy yoki diniy mansubligining ahamiyati yo'q. Maxalla - Buyuk ipak yo'lidagi Movarounnaxr shaxar madaniyatining ming yillik maxsuldir. Zamonaviy yangilanayotgan maxalla fukarolarining ijtimoiy o'zini-o'zi boshqarish silsilasida asosiy bo'g'indir. U - milily an'analarni saqlovchisi bo'lib, millatidan qat'iy nazar insonlarning madaniy xulq-atvori mezonlarini namoyon etadi va yaratadi. Yoshlarimizda maxalla turmush madaniyatidagi e'tiborga molik bo'lgan milliy an'analarni shakllantirishga, ularda etnik munosabatlar hamda milliy madaniyat asoslarini chuqur bilishga bo'lgan qarashlarini mukammallashtirishga, ularning milliy ongida xozirgi maxallachilik an'alarining zamonaviy ruxda ancha takomillashib, oilaviy-maishiy munosabatlarining mustaxkamlanishi, maxallada barcha tadbirlar: to'y-tomoshalar va ma'rakalar xalqimizning bir-birlariga hammad va hamsoya bo'lib, o'zaro yordam berib qo'llab-quvvatlashlari kabi, katta-kichiklikni xurmat qilish, ayniqsa yoshi katta kishilarni e'zozlash, oilaviy munosabatlarini o'z vaqtida bajarish, umumiy tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilish, qo'ni-qo'shnichilik an'alarini ijobiy ahamiyatga ega ekanligini chuqur xis etish kabi umuminsoniy qadriyatlar takomili asosida shakllanib borishlarini ta'minlashga xarakat qilinmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yoshlarimiz ongida qo'ni-qo'shnichilik, maxalladoshlik tushunchalarining tub ma'nosini ochib berishimiz kerak. Zero, bunday an'ana bizning mustaqillik davrimizga kelib juda ham kengayib ketdi! Darxakikat, xozirgi kunda u nixoyatda chuqur ijtimoiy ma'no kasb etib, shaxar bilan shaxar, qishloq bilan qishlok, mamlakat bilan mamlakatlar o'rtasida chinakam qo'ni-qo'shnichilik yuzaga keldiki, uning oqibat natijalari - o'zaro yordam, iktisodiy hamda siyosiy bir-birini qo'llab-quvvatlash, xalqlar tinchligi va mustakilligini saqlab turishlik darajasiga ko'tarildi. Bu masalaning sotsial-ijtimoiy, tomoni mavjuddir.

Muayyan kishilar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik munosabatlariga kelganda ham shuni aytish kerakki, uning ham ma'nosi kengayib, xilma-xil qirralari paydo bo'ldi va bo'lmokda. Bizning davrimizga kelib o'zaro yaqinlik, yuqorida qayd etganimizdek, o'zaro tenglik, beg'araz

hamkorlik, bir-biriga ko'maklashish, u yoki bu masalani hamkorlikda hal qilish, shuningdek, tom ma'noda baynalminal xarakter kasb etdi.

Barchamizga ma'lumki, xozirgi davr dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Shu bilan birga, o'zlarining mafkuraviy vositalari orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va xarakatlar kuchayib bormokda. Millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunistizm, irqchilik va diniy ekstremizm mafkuralari betinim xarakatda o'zlarining mudxish niyatlari uchun barcha imkoniyatlarini ishga solmokdalar. Xalqaro terrorizm xavfi butun insoniyatga taxdid solmokda. Bunday vaziyatda o'z mustakil fikriga sobit, e'tiqodiga, mustaxkam iroda va dunyoqarashiga ega bo'lgan insonlarga o'z Vatani xalqi manfaatlarida yonib yashashi va sadoqatli mexnat qilishi bilan o'zligini anglab yetishga intilmogi kerak. Ma'naviy kadriyatlarimizni ilm-fan taraqqiyoti bilan boyitib borish, uzligimizni chukurroq anglash, milliy goya va istiqloq mafkurasini tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va o'tmish tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik barchamizning mukaddas burch va vazifalarimiz qatorida bo'lishi zarur. Maxalla turmush madaniyati yuksaltirish borasida shaxsan Prezidentimiz, xukumatimiz o'ta talabchanlik bilan ish yuritayotganligini ko'rib quvonchlarga to'lasan kishi. Darxakikat, prezidentimiz I.A Karimov bosh-qosh bo'lishi natijasida unitilgan yoxud unitila boshlagan o'nlab qadriyatlarimiz tiklanib, o'rin-o'rniga ko'yila boshladi. Birgina maxalla-ko'ylar qadriyatiga, ularning obru e'tiborini ko'tarish, faoliyatlarini jadallashtirish borasida amalga oshirilayotgan bag'oyat ibratli ishlarni olib ko'raylik.

Yurtboshimiz I.A.Karimov qaerga bormasin maxalla kishilaridan qo'l ochib duo qilishlarini so'rashi, vaqti-vaqti bilan maxalla oqsoqollarini yig'ib, maslahatlashishida chuqur ramziy ma'no bor. Bu xech shubxasiz maxalla ko'y qadriyatlarini e'zozlash, kadrlash va ardoqlashning ibratli namunasidir. Prezidentimiz nigoxlari tushgan, nazar va e'tiborlari bilan karalgan unlab maxallarimiz faoliyatida tub burilishlar yuz berib, ular yurtimiz tayanchi, xalqimiz ovozigacha aylana boshladilar. Darxakikat, qadim-qadimdan maxalla tinch bo'lsa-yurt tinch bo'lgan, maxalla osoyishtaligi el osoyishtaligini ta'minlagan.

1.3. Xorij va sobiq sovet psixologlarining tadqiqotlarida etnopsixologik xususiyatlarni talqini.

Konkret odam ruxiyatining etnik xususiyatlarini o'rganishga qadim vaqtlardan buyon katta diqqat-e'tibor berib kelishgan. Bu qiziqish, ayniqsa, keyingi yillarda xududiy, turli milliy, etnik nizolar va to'qnashuvlarning kuchayib ketayotganligi bois yanada ortdi.

Boshqa xalqlarga, etnik guruxlarga xos bo'lgan ruxiy xususiyatlarni, qo'shni qabilalarning yashash tarzini o'rganishga bo'lgan qiziqish qadim vaqtlardayok bir kancha amaliy extiyojlar, avvalo iqtisodiy, savdo-sotiq va xarbiy maqsadlar natijasida vujudga kelgan.

Antik dunyo sayyoh va savdogarlari uzoq yurtlarga qilgan safarlardan qaytgach, xorijiy xalqlarning yashash sharoitlari, urf-odatlar, kishilar o'rtasidagi munosabatlar, ularning kiyinishi, qanday ovqatlar tanovvul qilishi, bu mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum, xayvonot olami va boshqa narsalar haqida o'z vatandoshlariga ajoyib va g'aroyib narsalardek so'zlab berishgan.

Qadimgi dunyo mutafakkirlari Aristotel, Gerodot, Gippokrat, Demokrit, Pifagorlar barcha ijtimoiy va psixologik hodisalarni tushuntirib berish uchun yagona bo'lgan umumiy tamoyillarni, nazariyalarni qidirib topishga, xususan, xalqlarning turli psixologik xususiyatlariga ega bo'lishining sabablarini tushuntirib berishga xarakat qiladilar.

Etnopsixologik xususiyatlarning vujudga kelishini ular asosan, tabiiy-geografik muxitning ta'siri bilan bog'lab tushuntirdilar.

Masalan, qadimgi dunyoning buyuk mutafakkiri Gippokrat (eramizdan avvalgi 460-375) o'zining "Xavo, suv va quruqlik", degan asarida xalqlarning turli ruxiy va jismoniy xususiyatlarni bevosita iqlim sharoiti bilan bog'lagan xolda tushuntirib berdi. Xalqlarning xarakter va temperament xususiyatlarining vujudga kelishini ular iste'mol qilayotgan ozik-ovqatlar bilan bog'lab tushuntirishga ham urinishlari bo'lgan. Mashxur matematik va faylasuf Pifagor (eramizdan avvalgi 570-500) ning tushuntirishiga qaraganda, xayvon go'shti va yog'ini

ko'p iste'mol qilinishi, xalqlarda qattiqqo'llik va dag'allikni vujudga keltiradi. Aksincha, o'simlik mevalari va sabzavotlarni mutassil iste'mol qilinishi esa tana faoliyatini suslashtirib, odamlar tabiatini muloyimlashtiradi.

Antik dunyoning buyuk aql egasi Aristotel (eramizdan avvalgi 384-322 y) , xaddan ortiqcha issiq yoki sovuq iqlim sharoitida yashaydigan xalqlar qattiqqo'l, shafqatsiz bo'lishadi, deb ishongan.

Buyuk bobomiz A.R.Beruniy "Osori bokiya" (Abadiy kadriyatlar) asarida turli xalqlar: qadimgi greklar, eroniylar, sugdlar, xorazmliklar, xristianlar va dinlar, yaxudiylar, musulmonlarning ruxiy xususiyatlari va ularning eralarini boshlanish sabablarini ko'rsatib bergan. U bu xalqlarning ma'lum davrlar ish vaqtlarga to'g'ri keladigan mashxur bayramlari, xotira kunlari, hamda bir xalqni ikkinchisidan farqlantiradigan urf-odatlarini, turli xalqlar qo'llayotgan yil hisoblash usullari, oy va yillarning farqi kabi masalalarni bayon qilib bergan.

Turli xalqlarga xos xususiyatlarni o'rganish uchun Beruniy o'ziga xos ilmiy metod yaratadi. Buning uchun, deb ko'rsatadi u, qadimgi xalqlar rivoyatlarini hamda o'tmish avlodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi lozim. Shuning uchun "Mukaddas kitob" larga amal qiluvchi xalqlar, muayyan aqidalarga rioya etuvchi dinlar, mazxablarga e'tiqod qo'yganlar izidan borishga to'g'ri kelishligini ko'rsatadi. Bunda ularning turli qarashlari asos qilib olinadi va isbot qilish maqsadida keltirilgan so'z, fikrlarni va faktlarni bir-biri bilan solishtirib ko'rish lozim. Shu yo'l bilan olingan ma'lumotlarni, ularga kushilib ketgan afsonalardan tozalash kerak bo'ladi, deydi.

Beruniy o'zining mashxur "Xindiston" asarida xindlarning dini va tafakkur kilish xususiyatlari, diniy va dunyoviy xayoti bilan boglik bo'lgan urf-odatlarini, ularning xudolarga ishonishlari, materiya va shakl, jonning kuchib yurishi, duzax va jannat haqidagi tasavvurlari bayon kilingan.

Xalqlarning psixologik xususiyatlarni iqlim va boshqa tabiiy omillar bilan bog'lab tushuntirish keyingi davrlarda yashab ijod kilgan XVII-XIX asr mutafakkirlari-Monteske, J.J.Russo, Didro, Gumboldt, shuningdek, xozirgi davrdagi ayrim tadqiqotchilar faoliyatida ham uchraydi. Sotsiologiyadagi "geografik determinizm" oqimining asoschilaridan biri-fransuz ma'rifatparvari Sh.Monteske (1689-1755 y) ham xalqlar o'rtasidagi ruxiy tafovutlarni asosan, kishilar tanasiga doimiy ta'sir etadigan turli-tuman tabiiy-iqlim natijasi, deb tushuntiradi. Uning fikricha, iqlim va zamin xalqlarning axloq normalarigagina ta'sir etib qolmasdan, shuning bilan birga davlat siyosatiga, madaniy taraqqiyot darajasiga "psixologik qiyofa" siga ham kuchli ta'sir ko'rsatar ekan. Iqlimning rolini xaddan tashkari oshirib yuborish natijasida Monteske sovuq iklimda yashaydigan xalqlar chidamli, bakuvvat, issik iklimda yashaydigan xalqlar esa jismoniy jihatdan zaif va oniz bulishida, degan xulosaga keladi

Iqlim sharoiti ta'sirida inson tanasida bo'ladigan fiziologik jarayonlarni ijtimoiy-siyosiy xodisalar va axloq normalari vujudga kelishi uchun moddiy asos qilib olinishi, biologik va sotsial qonuniyatlarni bir-biri bilan chalkashtirib yuborish hisoblanadi. Bu esa oxir oqibatda ijtimoiy-tarixiy xodisalarni tushurib berishda noto'g'ri xulosalar qilishga olib keladi. Iqlimiy omillarning rolini oshirib yuborish etnik xususiyatlarni o'zgarmaydigan va doimiy bo'lgan xodisa, degan xulosa qilishga olib keladi. Vaxolanki, kurrimiz iqlimida keyingi yuz yilda deyarli keskin o'zgarishlar sodir bulmagan bo'lsa ham, insonlar xayotida katta ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar bo'lib o'tdi, bu o'zgarishlar o'z navbatida xalqlarning psixologik qiyofasida ham katta o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

Shuning bilan birgalikda etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiy-geografik muxitning rolini ham butunlay inkor etib bo'lmaydi. Geografik joylashish o'rni va iqlim sharoiti xalqning yashashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit sifatida uning iqtisodiy rivojlanishida, psixologiyasining shakllanishida ma'lum ro'l uynaydi. U yoki bu mamlakatdagi ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik yuritish xususiyatlari va xayot tarzi ko'p jihatdan tabiy-iklim sharoitlari bilan belgilanadi. Lekin ijtimoiy tizim va tarixiy o'zgarishlar mamlakatning geografik joylashishiga, tabiy sharoitlariga boglik xolda vujudga kelmaydi.

XX asrda Yevropada yangi bir goya-”xalq ruxi” keng tarkala boshlandi. Bu goyaga ko`ra xar bir xalq, etnik gurux avvaldan instintiv ravishda berilgan o`z “ruxi” ga ega ekan. Xar bir irq, xalq ma`lum anatomik tuzilishiga ega bo`lgani kabi o`z ruxiga ham ega bo`lib, u xalq taqdiri va kelajagini belgilab turadi. Bu rux xalqning siyosiy tuzumini, e`tikod va ishonchni, diniy qarashlarini boshqarib turadi. “Xalq ruxi” nazariyasining to`la bayoni, ayniqsa, Gegel falsafasida o`z aksini topdi. Gegel xar bir xalqning o`tmishi va kelajagini mana shu “Mutloq rux” bilan bog`lab tushuntiradi. Turli xalqlarning ma`naviy, siyosiy, iqtisodiy, xatto irqiy tafovutlarining asosini ham shu “rux” tashqil etadi, deb ko`rsatadi. Shunga ko`ra u ayrim Osiyo xalqlari to`g`risida bo`lmag`ur fikrlar bayon etgan xolda, nemis millatini eng oliy irq va tarixiy o`tmishga ega bo`lgan millat, deb davo kilib chiqadi. Xitoy xalqi to`g`risida “ular hamma ma`naviy narsalar - erkin ahloq-odob, yuksak tuygu, diniy e`tikod va xaqiqiy san`at xislatlaridan maxrum”, deb yozadi (Gegel. Soch., t. 8. M., 1935, s.131).

Nemis faylasufi M.Lotsarus va tilshunosi G.Shteyntallar 1859 yilda “Xalq psixologiyasi va lingvistikasi jurnali” ni chop eta boshladilar va birinchi marta “Xalq psixologiyasi”, degan terminni muomalaga kiritib, xaqli ravishda etnopsixologiya fanining asoschilari bo`lib qolishdi.

Etnopsixologiya masalalarini tadqiq etishda nemis psixologi V.Vundtning katta xizmatlari bor. 1900 yilda uning “Xalqlar psixologiyasi”, degan 10 tomlik asari bosilib chiqdi. V.Vundt qarashlarining muxim tomoni shundaki, u etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishi va rivojlanishini tarixiy jarayonlar, ijtimoiy xodisalar asosida tushuntirib berishga xarakat kildi. Masalan, u nemis xalqining psixologik xususiyatlarini taxlil qilganda, ular xarakterida tadbirqorlik, xar bir ishni hisob-kitob bilan qilishlik, batartiblik va Vatan oldidagi burchni yaxshi xis qilish kabi ijobiy xislatlar bilan birgalikda boshqalarga ko`r-ko`rona ergashish va taqlid kilishlik ham borligini ko`rsatib utadi. Bu kamchilikning vujudga kelishida Germaniyaning siyosiy faoliyatida Yevropadagi boshqa mamlakatlarga qaraganda keyinrok maydonga chiqishi va Germaniyada o`rta asrchilik diniy mutaasiblik bilan yangi davr o`rtasidagi uzok yillar mobaynida davom etgan kurash natijasi bo`lib, bu tarixiy jarayon nemislarning psixologik qiyofasiga o`z ta`sirini ko`rsatgan, deb yozadi.

Sanoat ishlab chiqarishning rivojlanib borishi natijasida tashqi bozorga extiyoj va ijtimoiy xayotda ro`y berayotgan katta o`zgarishlar sotsiologlar, etnograflar va psixologlar oldiga turli xalqlar, sinflar, ijtimoiy qatlamlar psixologiyasini, omma va olomonga xos bo`lgan ruxiy xususiyatlarni atroflicha o`rganish vazifasini kuydi. Natijada bu davrga kelib etnopsixologiya muammolarini o`rganish ancha rivojlandi.

Hozirgi zamon psixologiyasida o`zaro ijtimoiy munosabatda bo`lgan odamlarni o`z ijtimoiy, siyosiy va shaxsiy sifatlariga tayanib individ va shaxsga bo`lgan holda o`rganiladi. Individ (individuum) lotincha so`z bo`lib, bo`linmas, parchalanmas degan ma`nolarni anglatadi. Individ ajrim, yagona, o`zicha borligini yo`qotmasdan parchalarga bo`lina olmaydi. Bu borada «far» so`ziga e`tibor qarataylik. «Fard» so`zining bir necha ma`nolari bor. Birinchidan, fard bu yakka, yagona, mujarrad, hamrohsiz demakdir; ikkinchidan, o`zgalarga o`xshamaydigan, benazir ma`nosini bildiradi; uchinchidan, fard bir kishi, bir nafar degan ma`noga ega; to`rtinchidin, fard ajralgan, biron kishi, narsadan ajralgan, uzoq ma`nosiga ega. Qat`iy tarzda aytganda, yuqorida ifodalangan «individ» tushunchasining ta`rifi faqat oliy darajadagi hayvonlar, jumladan, insonga nisbatan qabul etiladi, vaholanki, masalan, ba`zi o`simliklarni bo`laklarga bo`lish mumkin va har bir bo`lak mustaqil bo`la oladi. Individuallikning shaxsdan farqi shundaki, individning o`ziga xosligi, takrorlanmasligidadir. Individuallikning bu o`ziga xos ideal yoki sharq mutafakkirlari so`zi bilan aytganda fozil, qadr-qimmatlikka ega, ya`ni individuallikni qadr-qimmati haqiqiy shaxsiyatga bog`liq emas. Shaxsning ma`naviy-axloqiy qadr-qimmati o`zligini saqlab qolishga qaratilgan.

Shaxs «persona» so`zidan olingan bo`lib, lotincha niqob, qiyofa, soxta ko`rinish demakdir. Antik davrning oxirlarida individni shaxs deb ataganlar, zeroki u faqat tabiiy organizm emas, balki insoniy, ijtimoiy mavjudot sifatida namoyon bo`ladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida, xususan yangi zamonni boshlanishidanoq shaxsni turli shakldagi falsafiy talqinlari yuzaga keldi. Jumladan, nemis faylasufi Iogann Gotlib Fixte (1762-1814 y.) aytilishicha, haxs Men va Men emasdan iborat. Georg

Vilgelm Fridrix Gegel fikricha shaxs tabiiy va ruhiy jihatlardan iborat. Artur Shopengauer (1788-1860y.) qarashicha shaxs ixtiyoriy, irodaviy va tasavvuriy tomonlardan iborat.

Shaxs bu axloqiy hodisa bo'lib, biron maqsad bilan o'zga shaxslarga qaratilgan amallarning mazmuni, markazi va yagonaligidir. Shaxs axloqi uning ma'naviyatidagi tarkibiy qism bo'lish bilan bir paytda shu ma'naviyatning xosilasidir. Axloq inson tafakkuri, aql-zakovatini, butun faoliyatini tizginlab turuvchi hodisadir. Inson aqli qanchalik o'tkir va qudratli bo'lsa ham, uning axloqi tuban bo'lsa, bu kuchli aql va zakovat vayronkor kuchga aylanadi. Vayronkor kuch esa shaxsning atrofida qilargiga, jamiyatgagina emas, o'z sohibiga ham katta zarar yetkazadi. Sog'lom axloq va uning tarkibidagi umuminsoniy qadriyatlar aql-zakovat qudratini vayronkorlik yo'lidan qaytarib bunyodkorlik tomon yo'naltirib turadi. Shunday ekan zamonaviy shaxs uchun muhim sifatlardan biri axloqiy poklik hisoblanadi.

Ko'plab mutafakkirlar, shu jumladan Z.Freyd fikriga ko'ra, insonda yomonlik qilishga ehtiyoj bor. Agar yomonlik qilishga insonda tabiiy ehtiyoj bo'lsa, unda inson ham vayronkor sifatlarga egasi hisoblanadi. Shu boisdan Zardusht insonlarning yomonlik qilishga bo'lgan ehtiyojini (ijobiy bo'lmagan ma'naviy ehtiyoj) boshqarish kerakligini aytib, fikr bilan so'z, so'z bilan amal, amal bilan yaxshilik qilish lozimligini uqtirgan. Yomonlik qilish ehtiyoji yaxshi boshqariladigan shaxslarda odamlarga bo'lgan munosabat tez o'zgaruvchan bo'lmaydi. Jamiyatda bu ko'proq yuqori tabaqadagi kishilarda namoyon bo'ladi. Barkamol shaxsni shakllantirish barcha davrlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etgan. Shaxs kamolotiga nisbatan buddizm «dunyo azobi» kontseptsiyasini ishlab chiqqan. Undan qutilish yo'li (jumladan, Buddoning to'rt haqiqati) inson kamolotini ta'minlagan. Islomda «gunoh» tushunchasi va undan tiyilish shaxsni kamolot sari olib boradi. Har ikkala yondashuvda ham markaz («azob-uqubat», «gunoh») dan qochma harakat, ezgulikka tomon intilishda o'z aksini topgan. Zamonaviy jamiyatda esa shaxs kamoloti inson erkinligi bilan bog'liq bo'lib, uning manfaatlar ko'lamini qonun bilan chegaralanadi. Demak, bir shaxsning manfaatlari boshlangan joyda ikkinchi bir shaxsning manfaatlari chegaralanadi. Aks holda inson manfaatlari poymol qilinadi. Har qanday shaxs, tashqilot, davlat qonunga bo'ysunishi va rioya qilishi shart. Demokratik, fuqarolik jamiyatida nafaqat qonun ustivorligi, balki hukmronligiga erishish kerak.

Zamonaviy shaxs o'z erkinligini va uning ko'lamini anglay oladigan, izchil, doimiy ravishda o'zgarishlardan xabardor, izlanuvchi, huquq va burchlarini yaxshi biladigan, bunyodkor, har tomonlama sog'lom bo'lmog'i lozim.

Insoniyat XXI-asrda ilgari misli ko'rilmagan tub siyosiy, texnologik, axloqiy va ijtimoiy o'zgarishlar jarayoniga kirib bormoqda. Milliy davlatlarning muammolari globallashtirish natijasida yer yuzining turli hududlarida mintaqaviy davlatchilikka bo'lgan intilishlarning oshib borishi, ayni paytda tashqilotlar rolining oshishi o'tgan asr mo'ljallarini keskin o'zgarishiga olib keladi. Bu esa inson tafakkur tarziga ham ta'sir etmay qolmaydi. Ayni paytda ilmiy-texnik taraqqiyot sotsial jarayonlarning tezlashuviga olib keldi. Jamiyat doimiy taraqqiy etib boradigan ko'p sonli jamoalarning sistemasi bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy psixologiyada shaxs, jamiyatning qanday nazariyalari mavjud? Ularni farqlashda eng asosiy parametrlar nimalarda yotadi? degan savolga javob izlar ekanmiz dastavval uch asosiy omilga ahamiyat qaratish lozim bo'ladi. Birinchidan, ularning barchasi asosida inson yotadi. U faqat bir asosda sotsial mazmunga ega (substarkt). Ikkinchidan, ishlab chiqaruvchi (yaratuvchi) sifatida. Uchinchidan, jamiyat konteksti singari, odamlar orasidagi mavjudlikning ramziy ko'rinishi. An'anaviy jamiyatdan boshqariladigan taraqqiyparvar jamiyatga o'tish, insoniyatni yangi sifat bosqichiga olib o'tish uzoq davom etgan. E. Dyurkgeymning «Mexanistik va organistik birdamlik» nazariyasi yoki bunga qarama-qarshi F.Tyonnisning «Gemeynshaft» (an'anaviy jamoa) va «Gezelshaft» (industrial jamiyat) nazariyalarida «ixtisoslashmagan» va «komplekslashmagan» jamiyatlarning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan edi.

Maks Veber turli dinlarning jamiyatga ta'siri, xususan, apitalizm taraqqiyoti borasida protestant axloqini o'rganar ekan, an'anaviy agrar jamiyatdan industrial jamiyatga o'tish ehtiyoji axloqiy normalar, javobgarlik, mas'ullik hissi, mehnatsevarlikdan kelib chiqdi deya ta'kidlaydi. Bu fikrga Marten Lyuter (1483-1546 y.) va uning g'oyalari davomchisi Jan Kalvin (1509-1564 y.) (Kalvinizm-diniy oqimi asoschisi) larning iqtisodiy va ijtimoiy o'sishning omili deb ko'rsatgan

yerga muhabbat va o'limdan keyingi abadiy nom qoldirish ehtiyojini ham qo'shish mumkin. Amerikalik sotsiolog Daniel Bell 1974 yilda «postindustrial» jamiyat tushunchasini fanga kiritdi. Bu insoniyat jamoasining yanada yangi pog'onaga o'tayotganligidan dalolat berar edi. Sanoat taraqqiyotidan keyingi sivilizatsiya asoslari A.Ettsioni, A.Toffler, G.Maklun, I.Vallershayn, N.Lukman va yana bir qator olimlarning qarashlarida o'z aksini topdi.

A. Ettsionining «Postmodernizm» nazariyasi asosida yotuvchi «faol sotsium» tushunchasi o'zini o'zi boshqaradigan ideal jamiyat kontseptsiyasidir. Bu esa o'z-o'zini boshqaruvchi jamiyat nazariyasidir. O'ziga ishonch o'z kuchi, qobiliyati, evolyutsiyasi, chegarasini bilishdan kelib chiqadi. Bu maqsadga yo'naltirilgan jamiyatdir. «Faol sotsium»- bu postmodernistik jamiyatda moderndan shunisi bilan farqlanadiki, uning asosiy parametrlari yuksak siyosiy faollik va siyosiy faoliyatga keng investitsiyada namoyon bo'ladi, ta'lim va ilmiy tadqiqotlar hamda bilimning qadri oshadi. Qarorlar qabul qilishda, boshqaruv va jamiyat a'zolari faoliyatini nazorat qilishda axborotli tizimlar katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada «postmodernizm jamiyati» tushunchasi «axborotli jamiyat» tushunchasiga yaqinlashadi. Bunda axborotli jamiyatda bilimni qayta ishlash va yetkazish birinchi navbatda tursa, postmodernizm jamiyatida bilimni qo'llash va bashoratga urg'u beriladi. Shuni e'tirof etish kerakki, so'z birgina jamiyatdagi turli jihatlariga urg'u berish haqida ketmoqda. Bu esa bizning zamonaviy jamiyat-taraqqiyparvar insoniyatning bugungi kunidir. Umuman olganda postmodernistik jamiyat» tushunchasi psixologiyada postindustrial jamiyat tushunchasi sinonimi sifatida ishlatiladi.

«Bilimlar jamiyati» doirasida shunday g'oya yotadiki, bilimni boshqa mahsulotlar singari ishlab chiqarish, kiritish, sotish va sotib olish mumkin. Bu fikr 1962 yil amerikalik iqtisodchi Frits Meklap tomonidan aytilgan edi. Oradan o'n yil o'tib bu fikrni yapon tadqiqot guruhi va uning rahbari Ioney Masuda «2000 yilgacha mo'ljallangan axborotli jamiyat milliy rejasi» rezolyutsiyasida rivojlantirdi. Bu dasturda informatsion qadriyatlar moddiy qadriyatlarga nisbatan yangi bo'lib, u zamonaviy jamiyatning vujudga kelishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Etnopsixologiya muammolarni o'rganishda 20-30-yillari bir muncha jonlanish bo'lsa ham, lekin bu masalani o'rganishdagi sub'ektivizm va ayrim Garb olimlarining irqchilik va millatchilik nazariyalari bu fanni keng jamoatchilik oldida obrusizlantirib, fanning rivojiga soya solib kuygan edi. Shuning uchun ham bizda 30-yillarning urtalariga kelib «Etnopsixologiya», «Milliy psixologiya», «Milliy xarakter», «Milliy psixologik qiyofa» terminlari fakat manfiy ma'noda ishlatiladigan bo'lib koldi. Shuning uchun ham bu masalani o'rganishga yaqin davrlargacha yaxshi diqqat-e'tibor berilmasdan kelindi. Etnopsixologik tadqiqotlarning ikkinchi boskichi, asosan, 60-yillardan boshlandi. Ijtimoiy-siyosiy xayotda bulgan katta o'zgarishlar, milliy ongning usishi, millatlararo integratsiyaning kuchayishi natijasida etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishga bulgan kizikish bir muncha kuchaydi. Buning natijasi ularok, milliy psixologik xususiyatlarni o'rganayotgan olimlarimizning bir kancha mazmunli, kizikarli va muammoli ilmiy makolalari, kitoblari nashr etildi. Bir kator e'tiborli ilmiy jurnallarda millat va uning psixologik xususiyatlari to'g'risida olimlarning baxs-munozaralari tashqil etildi. Ayniksa, 1966-1970 yillar ichida «Voprosu istorii» jurnalida millat va uning belgilari to'g'risida olimlarning muzokaralari uyushtirildiki, bu muboxasada fanning turli jabxalarida ish olib borayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar faol ishtirok etishdi. Muzokaralari baxs asosan millatning psixologik qiyofasi to'g'risida bordi. Bo'lib o'tgan baxs munozaralar olimlarimizning etnik psixologiya va milliy psixologik qiyofa masalalariga kizikib karayotganliklari ma'lum bo'ldi. Shuning bilan birga muzokaralari milliy vokeylikdagi hodisalar, milliy psixologik qiyofani tushunishda olimlarimiz o'rtasida turli qarashlar va yondoshishlar borligini, xatto terminalogik chalkashliklar, noaniqliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Muzokaralar qatnashuvchilarini shartli ravishda ikki guruxga bo'lish mumkin. Birinchi gurux qatnashchilari etnopsixologik xususiyatlarni ijtimoiy psixologiyaaning real voqeligi va millatning belgisi sifatida tan olishdi. Bular, A.G.Agaev, S.M.Arutyunyan, V.M.Voxidov, A.I.Goryacheva, M.S.Junusov, A.Sobirov va boshqalar. Ikkinchi gurux vakillari esa, etnopsixologik xususiyatlarni ichtimoiy voqelik sifatida mavjudligini inkor etadi. Bular T.Yu.Burmistrova, S.T.Kaltaxchyan, V.I.Kozlov, P.M.Rogachev, M.A.Sverdlin va boshqalar.

Etnopsixologik xususiyatlar va uning asosiy elementi - milliy psixologik qiyofani millat belgisi sifatida o'rganish muxoliflaridan P.M.Ragachev va M.A.Sverdlinlarning fikricha, bu tushunchalar milliy munosabatlar analiziga mujmallik beradi va sotsiologiyadagi asosiy tushuncha - sinfiylik va baynalmillatlikka soya soladi. S.Kaltaxchyan fikriga ko'ra, agar milliy psixologik qiyofani millatning belgilaridan biri sifatida qabul qilinadigan bo'lsa, u vaqtda millatni ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida emas, tabiiy va doimiy o'zgarmas hodisa sifatida e'tirof etishga to'g'ri keladi. Muzokarada qatnashgan T.Burmistrova ham millatning ta'rafini berganda milliy psixologik qiyofani uning belgilari qatoriga kiritmaydi. Uning yozishicha, rus va ukrain, gruzin va arman, nemis va fransuz va shunga o'xshash xalqlar psixologiyasidagi farqlarni belgilash umuman mumkin emas. Ayrim xalqlar, millatlar psixologiyasida muxim tavofutlar borligini tasdiqlash, isbotlab bo'lmaydigan, quruq gap xolos va bu irqchilarga muruvvat ko'rsatilib, bir millatni ikkinchi millatga qarshi qo'yish uchush xizmat qilar emish. Milliy psixologik qiyofa va milliy xarakterni o'rganish, deb unga qo'shimcha qiladi.

Etnik xususiyatlar va milliy psixologik qiyofa to'g'risida so'z bo'lishi ham mumkin emas. Etnik psixologik xususiyatlarni ijtimoiy voqelik sifatida o'rganishning muxoliflari va ular keltirgan dalillarning ba'zilarida jon bor, albatta. Bizda etnopsixologik tadqiqotlarni ma'lum davrlarda repressiyaga uchrashiga, chet ellarda olib borilgan etnik psixologik tadqiqotlar va ulardan olingan natijalarni irqchilik, millatchilik ruxida talqin qilinishligi bo'ldi. Bu tadqiqotlarning ayrimlarida irq, millatlar, etnik guruxlarning ruxiy jihatdan teng emasligi, ba'zi xalqlarning boshqalardan ustun turishligi "ilmiy" jihatdan asoslashga xarakat qilindi. Masalan, etnopsixolog R.Linton va A.Kordinerlar anglo-sakslardan bo'lmagan hamma boshqa xalqlar o'zining ruxiy xususiyati bilan yetuk emas, degan noilmiy g'oyani ilgari surishadi. Xuddi shunga o'xshab Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi ayrim xalqlarni ruxiy jihatdan yetuk emasligini "isbotlovchi" qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Albatta bu xilda qilinayotgan "kashfiyotlar" olimlar o'rtasida tashvish va xovotirlik tug'dirishi tabiiy. Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganuvchi tadqiqotchilarning aksariyat ko'pchiligi, uni ijtimoiy-tarixiy kategoriya ekanligini e'tirof etsalarda, uni o'rganish "qiyin ob'ekt" ekanligini ta'kidlashadi. Darxakikat, bu masala tekshirish va o'rganish uchun murakkab va shuning bilan birga eng dolzarb, kam o'rganilgan muammo hamdir.

Etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishdagi qiyinchiliklar quyidagilar asosida vujudga kelgan:

- milliy psixologik qiyofani o'rganuvchi etnopsixologiya fanining bizda endi rivojlanib kelayotganligi va uning umumiy masalalarini hozirgi qadar to'la ishlab chikilmaganligi;
- etnik xususiyatlar ko'zga yaqqol tashlanib turgan xolda, uni tashkil etuvchi ruxiy xislatlar yashirin bo'lib, uni bevosita emas, bivosita, ya'ni ularning maxsullariga qarabgina baho berish mumkin;
- yuqorida zikr qilinganidek, ayrim olimlarning bu masalani butunlay obro'sizlantirib yuborishgani uchun, etnopsixologiya fani uzoq vaqt ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida o'z o'rnini topa olmadi.

Lekin bu qiyinchiliklar milliy psixologik qiyofa, milliy xarakter kabi millatning ruxiy xususiyatlari mavjud ekanligini inkor etishga asos bo'la olmaydi. Bu sohada muvaffakiyati ish olib borish uchun ilmiy tekshirishlar metodikasini takomillashtirish va kator fan vakillari-faylasuf, tarixchi, etnolog, sotsiolog, psixolog, adabiyotshunos, san'atshunoslarning hamkorlikda ish olib borishi zarur.

Milliy masalalar va etnopsixologiya buyicha yirik mutaxassis M.Junusovning xakli ravishda ta'kidlashicha, millatning muxim belgilaridan bulgan psixik qiyofani inkor etish nazariy jihatdan asossiz bo'lib, amaliyotda katta xatolarga olib kelishi mumkin. Baxs taklili shuni ko'rsatadiki, bu masalada kator terminologik chalkashliklar ham mavjud ekan. Masalan, ayrim baxs qatnashuvchilari "Milliy psixologik qiyofa", "Etnik psixologiya", "Milliy xarakter" kabi tushunchalarni aynan bir narsa, deb hisoblaydilar. Shuning uchun bu tushunchalarning bir-biridan farq qiluvchi tomonlarini ko'rsatmasdan turib, ularning mazmuni va uziga xos xususiyatlari to'g'risida fikr yuritish mumkin emas.

Etnopsixologik xususiyatlar, milliy psixologik qiyofaning norealligi to'g'risida bir kancha sub'ektiv fikrlar aytilgan, ba'zi karashlarda jiddiy ixtiloflar mavjudligiga qaramay, jurnal o'zining yakunlovchi makolasida, etnopsixologik xususiyatlar real mavjud, deb ta'kidlagan. Darxakikat, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi tengsizlik, turfa xil tabiiy-geografik sharoitlar xalqlar urtasida ma'lum psixologik tafovutlarni vujudga keltirgan. Turli xalqlarda oila a'zolari urtasida bo'ladigan munosabatlarning bir xil bulmasligi, urf-odat va an'analardagi farqlar, narsa-xodisalarni idrok etishda mavjud bulgan turfa xillikni etnopsixologik xususiyatlar bilangina tushuntirib berish mumkin.

1.4. ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR.

Yuqorida ko'rdikki, ayrim tadqiqotchilar va mualliflar etnopsixologik xususiyatlarning real mavjudligini inkor etdilar yoki uni tekshirish uchun qiyin ob'ekt ekanligidan ta'kidlaganlar. To'g'ri, etnopsixologik xususiyatlarni o'rganishdagi qiyinchiliklarni inkor etib bo'lmaydi. Lekin shu bilan birga u real mavjudmi yoki yo'qmi, degan savolni qo'yilishi ortiqcha, deb uylaymiz.

Etnopsixologik xususiyatlar o'zining kelib chiqishi jihatidan xalqning butun o'tmishi, hayot tarzi va tarixi bilan bog'lanib ketgan bo'lib, bu xususiyatlar millat shakllanmasdan avvalroq vujudga kela boshlagan bo'ladi. Ma'lumki, millat etnik birlik taraqqiyotining eng yuqori bosqichida vujudga keladi. Etnopsixologik xususiyatlarning ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga ya'ni urug', qabila, ellatlarga ham xosdir. Etnopsixologik xususiyatlar ayrim tadqiqotchilar ko'rsatganidek, faqat bir omil-tabiiy muxit ta'siri bilangina vujudga kelib qolmay, uning vujudga kelishida uchta omil ta'sir ko'rsatadi.

Birinci omil bu - siyosiy-iqtisodiy va jamiyat xayotida bulayotgan ijtimoiy jarayonlar tizimi bo'lsa, ikkinchisiga, shu etnik birlik yashab to'rgan tabiiy-geografik muxitning xususiyatlari kiradi. Uchinchi omilga esa xalq xayotida bo'lib utgan muxim tarixiy xodisa va voqealar kiradi. Lekin shuni aytish kerakki, etnopsixologik xususiyatlar tizimida kishilar ruxiyatining mazmunini, avvalo birinci omil-siyosiy-q, o'zgarishlar belgilab beradi. Tabiiy-geografik omil esa asosan etnopsixologik qiyofaning tashqi ifodalarini belgilaydi. Shuning uchun ham bu omil kuzatayotgan kishi nazariga birinci omilga qaraganda yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq hayotida bo'lib o'tgan muxim tarixiy voqealar so'zsiz uning psixologik qiyofasida o'chmas iz qoldiradi. Tabiatdagi ayni bir voqeliklarning doimiy ta'siri natijasida kishilar bu voqelikdagi xususiyatlarni boshqa sharoitda yashayotgan etnik gurux vakillariga karaganda chukurrok idrok kilishga o'rganib qoladilar. Chunki tashqi muxit bizning sezgi a'zolarimizga behisob informatsiyalar, ya'ni xilma-xil taassurotlar yuborib turadi. Natijada evolyutsion taraqqiyot davomida, tanamizda shu tashqi muxit bilan adekvat (mutanosib) munosabatni ta'min ettiruvchi neyro-fiziologik mexanizm shakllanadi. U kishilarning sezgi va idroklarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun u yoki bu xalqqa xos stereotip xatti-xarakatlarni, idrok xususiyatlarini tashqi muxitga moslashuvining oliy ko'rinishi, deb hisoblash kerak. Tashqi muxitning doimiy ta'sirida vujudga kelgan ruxiy xususiyatlar bu taassurotlarning butun sistemasi (tizimi) ni emas, balki uning uchun muxim bo'lgan va o'tmish tajribasida sinalgan, mustaxkamlanib qolgan tomonlarnigina aks ettiradi. Tashqi olam ta'siri kishi miyasida o'rtnashib xislar, fikrlar, xoxish, irodani namoyon bo'lishi... xullas, ideal orzu-tilak tarzida aks etadi va xuddu shu ko'rinishda, ideal kuchlar bo'lib qoladi, deb ko'rsatgan edi E.Fridrix. S.I.Korolevning yozishicha, shakllangan etnopsixologik xususiyatlar ma'lum darajada muxofaza qiluvchi mexanizm rolini o'ynaydi. U xuddi g'alvirdek, yot narsalarni ajratib, uni yo qabul qiladi yoki shu xalqda mavjud bo'lgan normalar asosida qayta ishlab beradi, yoxud uni inkor etadi (S.I.Korolev. Voprosu etnopsixologii...98-bet). Atrofdagi vokelikni, xodisalarni uziga xos ravishda idrok kilish, tasavvur va fikr kilish va ularni tab va tuygular, urf-odat va an'analari, xarakter tarzida namoyon bulishi etnopsixologiyaning kaytarilmas, betakror xususiyatlari hisoblanadi.

Ma'lum bir millat vakillarining uziga xos idrok etishi fikrlashi va orzu-istaklarini, ya'ni oliy ruxiy xususiyatlarini tushunish va tushuntirish, uning namoyon bo'lish sabablarini organizmning, miyaning tuzilishidan emas, balki yuqorida aytganimizdek, xalqning tarixiy taraqqiyoti, uni o'rab to'rgan tabiiy muxitning shart-sharoitlaridan kidirish kerak. Turli ijtimoiy tizim va iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan amaliy faoliyat shakllari turli ruxiy

jarayonlar tizimining shakllanishini belgilab beradi. Shuning uchun ham turli tarixiy davrlarda, ijtimoiy tuzumda yashayotgan xalqlar bir-biridan faqat ongning mazmuni bilangina farqlanib qolmasdn, shuningdek, faoliyat shaklining tuzilishi jihatidan ham farqlanadilar.

Ko'p sonli ijtimoiy psixologik eksperimentlarda mashhur psixolog A.R.Luriya ko'p ruxiy jarayonlar, ayniqsa, oliy ruxiy faoliyat jarayonlari-tasavvur va mavxumlash, ijodiy xayol insonlarning biologik xususiyatlari bilan bog'lik bo'lmay, balki ancha taraqqiy etgan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot maxsuli ekanligini ko'rsatib berdi.

Amaliy ko'rgazmalik ustun bo'lgan xatti-xarakatlar bir muncha sodda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida tafakkur ham sodda amaliy faoliyatni aks ettirish xarakteriga ega ekanligini ko'rsatib berdi.

O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, fakat murakkab bilish jarayonlari bilan bog'lik bo'lgan ruxiy jarayonlarga emas, balki nisbatan oddiy jarayonlar va funksiyalar ham xayotiy tajribalar va ijtimoiy-tarixiy jarayonlar asosida vujudga kelar edi. Miya o'z-o'zidan, tashqaridan kelayotgan informatsiyalarsiz fikrlay olmaydi. Psixolog P.P.Blonekiy aytganidek, "Bo'm-bo'sh boshda fikr bo'lmaydi".

Ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy shart-sharoitlar inson faoliyatini belgilaydi. U esa o'z navbatida ruxiy jarayonlar va ongning mazmun va moxiyatini belgilaydi. Turli davrlarda, zamonlarda yaratilgan mexnat maxsulotlarida o'sha davr va zamon odamlarining bilimlari va imkoniyatlari o'z aksini topgan bo'ladi. Zero, mexnat jarayonida sub'ekt ob'ektga kuchadi, insonning kuch va qobiliyatlari u yaratayotgan narsalarda gavdalanadi. Shuning uchun ham psixologlar turli tarixiy davrlarda yashagan kishilarning ruxiy xususiyatlarini, davr ruxini, ular yaratib qoldirgan faoliyat maxsulotlarini o'rganish orqali bilib olishi mumkin. Xar bir xalqning tarixi va taqdiri o'ziga xos kechadi. Agar xalq tarixini va uning psixologik xususiyatlarini bir-biriga solishtirsak, biz etnopsixologik xususiyatlar xalq tarixini chuqur aks ettirishni ko'ramiz.

Yuqorida zikr qilganimizdek, etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiiy muxit ham ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Geografik va iqtisodiy sharoitlarning o'xshash bo'lmashligi, etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki qo'shni va qardosh xalq-o'zbeklar bilan qozoqlarning psixologik qiyofasida ma'lum tafovutlarni vujudga keltirib chiqardi.

Ma'lumki, o'zbeklarning asosiy qismi dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shugullanish imkoniyati mavjud bo'lgan voxalarda joylashganlar. Yerga xususiy mulkning vujudga kelishi, yerdan intensiv ravishda foydalanish, dexkonchilik maxsulotlarini ko'plab yetishtirishga olib keldi. Bundan tashqari o'zbeklar yashaydigan yirik shaxarlarning g'arbdan sharqqa janubdan shimolga o'tuvchi katta karvon yo'llarida joylashgan bo'lishligi, bu yerlarda faqat dehqonchilikni emas, shuningdek, pul-tovar munosabatlarini, turli xil xunarmandchilikni, qo'shni xalqlar bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlanishga olib keldi.

O'zbek xalqining hayoti va turmush tarzini o'rgangan tadqiqotchilarning barchasi o'zbeklarga xos bo'lgan ochiq yuzlik va xushmuomilalikni ta'kidlab ko'rsatishgan edi. O'zbeklarga xos bu xususiyatni qozoq adabiyotining klassigi Abay ham ta'kidlab ko'rsatib, iltifotlilik, xushmuomilalik-bularning hammasi sartlardadir, deb yozgan edi. O'zbeklarning bir necha asrlar dexqonchilik bilan shug'ullanib kelishi, ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lgan yerga nisbatan ularda tejamkorlik va omilkorlikni vujudga keltirdi. Tabiiy-geografik omillarning ob'ektiv ta'sirlarini xolislik bilan o'rganish, xech qanday irqchilik va millatchilik nazariyalarni keltirib chikarmaydi. Shu narsa ma'lumki, serunum yer, mutadil iqlim va boshqa qulay tabiiy sharoitlar, ko'p jihatdan ishlab chiqarishning rivojiga, aholi sonining usib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, masalan, shimoldagi va tropik mamlakatlardagi elatlar va xalqlar tarixiy taraqqiyotda nisbatan mutadil iqlim sharoitlariga ega bo'lgan xalqlardan orkada qolib ketishgan.

Agar shimolning qattiq sovuq tabiati dexqonchilik qilishga va sanoatni rivojlanishiga monelik qilgan bo'lsa, tropik iqlimdagi zaminning sermaxsulligi kishilarni dangasa va tarallabedodchi qilib, bir etnograf so'zi bilan aytganda, kishini xuddi bolalarga o'xshash ojiz, nomustaqil qilib, uning taraqqiy etishini tabiiy zarurat qilib qo'ymaydi. Shu narsani paykash kiyin emaski, deb yozadi etnograf Yu.V.Bromley-sotsial-iktisodiy, geografik va boshqa shart-sharoitlarni ta'siri natijasida mexnatsevarlik kabi xususiyat hamma xalqlarda ham bir xil

namoyon bulavermaydi. Tabiiy muxitning o'ziga xosligiga ko'ra, kishilar yashashi uchun zarur bo'lgan narsalarga erishishda uchraydigan qiyinchiliklarni turlicha yengib o'tadilar.

Psixolog I.S.Konning yozishicha, Yangi Gvineyaning ichkarisida va nisbatan Yevropa ta'siri kam yetib borgan joylarda yashaydigan papuaslar qulay iqlim sharoitlariga va tabiatning mo'l-ko'l ne'matiga ega bo'lganligi uchun ham ba'zi qiyin sharoitda yashaydigan kishilarga o'xshab, ertaning tashvishi bilan yashashga o'rganmaganlar. Shuning uchun ham ular faqat kundalik ehtiyojlarini qondirish uchungicha mehnat qilishadi. Ko'plab narsa ishlab chiqishga va g'amlab qo'yishga xarakat ham qilishmaydi. Ularning naznida kim kuyib pishib ko'p ishlasa, ochko'z va yomon odam hisoblanadi.

Shunga ko'ra ularning iqtisodiy, madaniy rivojlanishi ham ishlariga yarasha va darajada. Qaerda ishlab chiqarish yuqori saviyada tashqil qilinmagan bo'lsa, mehnatkashlik bo'lmasa, u yerda ijtimoiy, tarixiy rivojlanish ham bo'lmaydi. Rivojlangan qaysi bir mamlakatni olib ko'rmang, shu yerda mehnatga munosabat, mehnatkashlik juda yuqori darajada ekanligini ko'ramiz.

Tabiiy-geografik muxitni ta'siri qanchalik sezilarlik bo'lmasin, biroq etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida uning yetakchi omil kilib qo'yish to'g'ri emas. Shuning bilan birga, uning ro'lini mutloq inkor etish, yoxud ortiqcha oshirib yuborish ham noto'g'ri xulosalar qilishga olib keladi. Psixolog S.L.Rubinshteyn ko'rsatganidek, "ruxiy xususiyatlarning shakllanishini birgina tabiiy sharoitlar, yoki ijtimoiy muxit bilangina asoslab tushuntirish mumkin emas.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

O'rganilgan va tahlil qilingan ishlar bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak; Etnik xususiyatlarni ilmiy amaliy o'rganish uning ijtimoiy zarurat ekanligi? Yoshlar ongiga milliy xususiyatlarni singdirish va rivojlantirish ularning o'z millati va o'z xalqini tarixini, kelib chish va yaratilish jarayonlarini to'la shrganish imkoniyatini beradi. Milliy psixologiyani masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bugungi kunda yoshlar ongiga milliy xususiyatlarni singdirish va shakllantirishda asosiy ta'sir etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Yainiqsa psixologiyaning determinizm tamoyili asosida milliy ongni shakllanishi o'z isbotini topdi. Olib borilgan izlanishlar nazariy va amaliy taxlillari shuni ko'rsatadiki, xali milliy psixologiya sohasida o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Yosh xos bo'lgan milliy psixologik xususiyatlarning o'ziga xosligini tushuntirish, ta'lim tarbiya jarayonida maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab milliylik xususiyatlari haqida tushnchalarni singdirib borish, ularni o'z millatiga sadoqatli barkamol inson bo'lib yetishini asosi ekanligini ko'rsatdi. Bugungi ta'lim-tarbiya sohasida yoshga xos etnopsixologik xususiyatlarni shakllantirish va ularning mazmun mohiyatini ongiga singdirish asosiy ta'limi va tarbiyaviy vazifa ekanligi o'z isbotini topmoqda.

2.BOB. O‘smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning ijtimoiy shart sharoitlari.

2.1.O‘smirlarning yoshga xos psixologik xususiyatlari

O‘smirlik yshi 11-12 yoshdan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. O‘smirlik insonning balg‘atga yetish davri bo‘lib, o‘ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog‘onalaridan keskin farqlanadi. O‘smirda ro‘y beradigan biologik o‘zgarishlar natijasida uning psixik hayotida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o‘rish va jinsiy yetilish amalga oshadi. Bolaning bo‘yi 11-12 yoshida yiliga 6-7 sm, xatto 10-sm gacha o‘rishi mumkin. Biroq bu bosqichda qizlar o‘g‘il bolalarga karaganda tezroq o‘rsadilar. Bu o‘rish 13-14 yosh oxirlarida o‘g‘il bolalar va qizlarda tenglashadi. O‘n besh yoshga qadam qo‘yganda o‘g‘il bolalar qizlarni ortda koldirib ketadilar. Shundan keyin to umrining oxirigacha o‘rishda o‘g‘il bolalar ustunlik qiladilar. O‘smirlik davrida bo‘y bilan tana nomutanosib ravishda o‘rsadi, natijada bolalar oriq, nimjon va novcha bo‘lib ko‘rinadilar. Bo‘ylari tez o‘sganligi uchun kiyimlari qisqa vaqt ichida kalta bo‘lib qoladi, bu esa ularning ruxiyatiga qattiq ta‘sir qiladi, go‘yoki atrofdagi odamlar unga karayotganday, «ukasining kiyimini kiyib olganday» tuyuladi. O‘smir ichki organlarining o‘rishida ham shunday nomutanosiblik bo‘ladi. O‘pka sig‘imi kattalashadi, yurak faoliyati kuchayadi, lekin qon tomirlari kengayishi bundan ortda qoladi, natijada o‘smir tez charchaydigan, tezda rangi uchadigan, holsizlanadigan, boshi aylanib, xatto yiqilib qoladigan bo‘ladi. Tez o‘sayotgan organizm ko‘prok oqsil moddalarini, ko‘proq kislorodni talab qiladi, bularni esa bola tez xarakat qilish orkaligina oladi. Shuning uchun ham o‘smirning xarakatsiz bir yerda turib kolishi unga qiyinchiliklar keltirib chikaradi. O‘smirning sinfda, dars paytida ham o‘rnidan turib ketishi, u yon – bu yonga qarashi, qimirlashi, sumka-sidan biror narsani olib yeb o‘tirishining sababini ham shu bilan izoxlash mumkin. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar bilan mashg‘ulot olib borayotgan o‘qituvchi birmuncha «raxmdil, kechirimli, ba‘zan o‘zini ko‘rmaganga oladigan» ham bo‘lishiga to‘g‘ri keladi. Mazkur davrda tananing umumiy xajmidan 7-8 foizini qon tashkil qiladi, qon bosimi birmuncha oshadi, simob ustunining 110-115 mm darajasida bo‘ladi. Yurak qisqarishining chastotasi sekinlashadi, masalan, 11 yoshda minutiga 85-90 marta ura, 14-15 yoshlarda 70 martagacha pasayadi. Upkaning tiriklik sigimi kuyidagicha bo‘ladi: o‘g‘il bolalarda – 11 yoshda 1900-2000 ml, 15 yoshda – 2600 –2700 ml, qizlarda – 11 yoshda 1800-1900 ml, 15 yoshda 2500-2600 ml. Shuning uchun nafas olish xar daqiqada 2 marta kamayadi. O‘smirlarda ichki sekretiya bezlari funksiyasi ham o‘zgaradi, bu esa jinsiy yetilishni tezlatadi. Markaziy nerv tizimida ko‘zgaluvchanlik o‘zgaradi, natijada yaqqol xis-tuygular paydo bo‘ladi. Kalkonsimon bez faoliyatining kuchayishi qo‘zgaluvchanlik, asabiylashish va toli-kishni keltirib chikaradi. Bosh miya kobig‘ida tormozlanish jarayonining susayishi shiddatli emotsional kechinmalarni vujudga keltiradi, xulq-atvorda parokandalik, g‘ayritabiyylik paydo bo‘ladi.

O‘smirlar jinsiy yetilish sirlarining 17 foizini ota-onadan, 9 foizini o‘qituvchilaridan, 4 foizini maktab vrachidan va qolganlarini kucha-kuydan, o‘rtoqlaridan va dugonalaridan bilib oladilar. Goho o‘smirlar orasida axloqan tubanlashuv xollari ro‘y berishi mumkin. Ularni bunday qiliqlardan, nopok gurux va to‘dalardan xalos etish maqsadga muvofiqdir.

O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik xolatiga ko‘chish jarayoni sodir bo‘ladi. O‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. O‘qituvchining yangi MA‘RUZAni batafsil tushuntirishi, darslarni ma‘ruza shaklida olib borilishi uni zeriktiradi, o‘qishga lokaydlik tug‘diradi. Ilgari o‘quv materialini ma‘nosiga tushunmay yodlab olishga odatlangan o‘smir endi zarur o‘rinlarni mantiqiy xotira va tafakkurga suyangan xolda o‘zlashtirishga xarakat qiladi, talabchanlik unda kuchayadi. Shu vaqtgacha odobli, dilkash bo‘lgan o‘smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, ko‘pol, serzarda bo‘lib qoladi. Kattalarning talablari, ko‘rsatmalari mantikan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarga ega bo‘lishi kerak. O‘smir xulkidagi bunday o‘zgarishlar tajribasiz o‘qituvchi yoki ota-onalarni qattiq tashvishga soladi, munosabatlarini o‘zgartiradilar. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar kelib chiqadi. Ayrim pedagoglar o‘smirlik davri inqirozi sabablarini bilishga intiladilar.

O'smirning psixik o'sishini xarakterga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkab-lashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta – sekin yo'qotish mumkin. O'smirlik chogida rivojlanishning jadallashuvi – akseleratsiya yaqqol ko'zga tashlanadi. O'smirlik inson shaxsi kamolotining muxim bosqichi hisoblanadi. O'smirlik chog'ida g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan psixologik o'zgarishlar ro'y beradi, bolaning muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keyingi kamol topishi uchun zarur sifatlar ta'lim –tarbiya ta'sirida paydo bo'ladi, barqaror, mustaxkam iz koldiruvchi ijobiy xislatlar namoyon bo'ladi. O'smir kamolotga erishgan sayin uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bo'la boshlaydi, psixikasida keskin qayta qurish sodir bo'ladi. O'zgarishlar uning oldiga yangi talablar qo'yadi, bu esa o'z navbatida ko'proq xuquq va erk berilishini, eng avvalo mustaqil qarorga kelish va xulq – atvorini maqbul deb hisoblab amalga oshirishni takozo qiladi. Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barkarorlik o'smirlik davrining eng muxim xususiyatlari hisoblanadi. Xozirgacha balogatga erishish va jinsiy yetilishning jadallashishi to'g'risida bir butun, yaxlit ilmiy nazariya mavjud emas. Shuning uchun o'sishdagi jadallashuv, ya'ni akseleratsiya bo'yicha ham muayyan nazariya yaratilmagan. Bizningcha, mana shu omillar qatoriga shaxslararo munosabat-larning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, odamlarning oqilona, odilona muloqotga o'rgangani, jamoa va guruxlarda ijobiy psixologik muxit yaratilgani, asabiylashish, parokandalik kamayganini ham qo'shish maqsadga muvofikdir. Bola aloxida olingan shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatini shaqllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o'smirlik yoshining ikki xil davriga – kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Birinchi bosqichda bola o'zini «bolalar» dan ajratib, endi o'zini kattalar olamiga mansunbligini ta'kidlamokchidek bo'ladi. Bu davr uchun kattalarning xatti-xarakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo'lishi uchun yordam berayotgan bir gurux tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari xolatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda endi o'zining yosh bola emasligiga shubxa qilmaydi va u o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos xarakterlar qila boshlaydi. Bu davrga kelib, uning xarakatlari o'zi bilan o'rtoq bo'lgan bir gurux tengdoshlariga bog'liq bo'lmay qoladi. Atrofidagi xar qanday kishining uning shaxsi haqidagi tankidiy fikrni eshitgisi kelmaydi, xato bo'lsa ham o'z fikrida kat'iy turishga xarakter qiladi. Shuning uchun ham bu davrda bolaga ta'sir o'tkazish metodikasiga jiddiy e'tibor berish darkor.

O'smirlik yoshida yuz bergan o'zgarishlar, jumladan fiziologik o'zgarishlar nafakat uning xulqiga, xatti-xarakatlariga ta'sir etibgina qolmay, uning bilishga bo'lgan munosabatlariga, mehnat va uning turlariga munosabatlarini ham o'zgartirib yuboradi.

O'smirning nerv tizimi jiddiy o'zgarishlarga duch keladi. Miya pustlog'ining analitik-sintetik faoliyati murakkablashadi. Xotiraning xajmi ko'rsatmali material va faktlarni eslab qolish hisobiga emas, balki mantiqan bog'langan materialni eslab qolish hisobiga oshib boradi. O'smirlar o'zlashtirib oladigan mavxum tushunchalar doirasi kengayadi. Ayni vaqtda muxim narsalarni muxim bo'lmagan narsalardan ajrata bilmaslik ham ko'zatiladi. Ijtimoiy faoliyatga qiziqish ortadi. Faollik, tashabbuskorlik, bahodirona ishlar va romantikaga, do'stlik va o'rtoqlikka intilish bu yoshga xos bo'lgan xususiyatdir. O'smir endi bola emas, u tevarakat-rofidagi narsaga juda ham qiziqadi, faolligi ham zur, ham jismoniy, ham aqliy mehnatga ishtiyoki juda katta. Uning bu faolligini yo'lga solishga o'rganish lozim, bolalarni axillik bilan ish ko'rishga o'rgatish, ularning kerakli bilimlar bilan qurollanishiga, jamoat ishlarini olib borishni o'rganishiga, ham aqliy mehnat sohasida, ham jismoniy mehnat sohasida uyushqoqlik bilan ishlashni o'rganishiga yordam berish kerak.

O'smirning faolligi – ijtimoiy hayotda o'z o'rnini, o'zining boshqa kishilar hayotidagi ro'lini tushuna boshlagan kishining faolligidir. Uning faolligidan axloqiy tarbiyada ham, aqliy tarbiyada ham foydalanish kerak, o'smirning voqea-hodisalar mohiyatini bilib olishdagi

ildamligidan sinf o'quvchilari faolligini oshirishda, namuna qilib ko'rsatishda, o'qituvchi bayon qilgan nazariy bilimlarga hayotiy misollar keltira olish ko'nikmalarini hosil qilishda ham foydalanish zarur. Buning uchun xar bir o'smirlarga uning ko'ngliga yoqadigan ish topib berish lozim.

O'smirlarni tarbiyalash, ularga rahbarlik qilish san'ati shundan iboratki, ular bu raxbarlikni mumkin qadar kam xis qilsinlar. O'qituvchilar jamoasi xar qancha urinishidan qat'iy-nazar, ta'lim jarayonida «tarbiyasi qiyin» o'smirlar ham uchrab turadi. Bunday bolalar o'smirlik yoshiga xos umumiy xususiyat – o'z imkoniyatlariga me'yoridan ortiq yuqori baho berishlari asosida eng ko'p sodir bo'ladi. Hozirgi davrda bunday o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash usuli yaratilgan, fe'l atvordagi nuksonlarning xatti-xara-kati nosoglomligining oldini olish va tuzatish yo'llari ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, tarbiyasi qiyin, injik, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. O'quvchilarda nojo'ya xatti-xarakatlar paydo bo'lishining sabablari xar xildir. Qonunni buzishi yoki qoidaga xilof ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy qonun buzar va oddiy qoidabuzar (tartibbuzar) guruxlariga ajratiladi.

- Shaxsning biologik o'sishidagi nuksonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar tarbiyasi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shaxsning psixik o'sishidagi kamchiliklar, chunonchi, aql-idrokning zaif rivojlangan, irodaning bo'shligi, xissiyotning kuchsizligi, zarur extiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o'smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik xatti-xarakatlarni izdan chiqaradi. Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar:
- ahloqiy xislarni yetishmasligi,
- o'qituvchi,
- sinf jamoasi,
- oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot,
- ishyoqmaslik,
- bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlamaslik

va boshqalar ham salbiy qiliqlarni vujudga keltiradi.

Shaxsning bilim, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari:

- aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muxim bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi o'zgarishlar;
- maktabdan tashqari muxitning ta'siridagi nuqsonlar, chunonchi, oilada psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka berilishi, balog'atga yetmagan tengqurlarning ta'siri madaniy-ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o'smirlar ko'payishiga sabab bo'ladi.

O'smirlarning tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta shartli guruxlarga ajratish mumkin:

- Birinchidan tarbiyasi qiyin o'smirlarning birinchi guruxi orsizlar yoki subutsiz, surbetlar deb ataladi. Ular o'z xatolarini bila turib qonun va qoidalarni buzadilar, noma'qul ishlarni qiladilar. Bunday bolalar betgachopar, o'jar tabiatli, raxm-shafqatsiz, «zo'ravon» bo'ladilar. Mustaqil fikrga ega bo'lmagan, laqma tengdoshlarini o'z atroflariga to'playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.
- Ikkinchi guruxga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror yuksak xis – tuyg'uga ega emasliklari sababli «orqa qanot»da turib qoidani buzadilar. Bu turdagilar ko'pincha qilmishlariga tavba qiladilar, so'z beradilar, lekin ma'lum fursat o'tgandan so'ng bergan va'dalarini butunlay unutadilar.
- Uchinchi guruxga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo'liga kirib qoladilar.

- To'rtinchi guruxga injik tabiatli o'smirlar kiradi. Ular sinf jamoasida o'z urnilarini topa olmaganidan kayguradilar. Bunday o'quvchilar ginaxon, arazchi bo'ladilar. Tarbiya siqiyin o'smirlarning xatti-xarakatlarini ijobiy yo'nalishga burib yuborish uchun ularda ma'suliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak xislarni tarkib toptirish lozim. Ularga mos topshiriqlar berish, ma'suliyat xissini shaqllantirish orqali ijobiy fazilatlar paydo qilish mumkin.
- **2.2.Milliy-etnik xususiyatlarning yoshga xos jihatlarini shakllanishi va rivojlanishini o'rganish usullari .**

Asriy orzusi mustaqillikka erishgan xalqimiz uni mustahkamlash yo'lida yakdil va jo'shqin faoliyat olib bormoqda. Istiqlool mamlakatimiz iqtisodiy va ma'naviy takomilligining barcha sohalari rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. O'sib kelayotgan yosh avlod elim, yurtim deb yashashi, vatanimizning gullab-yashnashi buyuk kelajakka ishonch ruhida tarbiyalanishi ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya jarayonining bog'liq. Albatta, bu vazifani amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida qabul qilingan Davlat ta'lim standartlari talablariga ko'ra ta'lim tizimi, mazmuni va boshqaruvini milliy an'analar, tarixiy, ma'naviy qadriyatlariga mos tarzda tanlash va tashkil etish zarurati qo'yildi.

Prezidentimiz xalqimizning ma'naviy poydevori davlatimiz tayanchi qadimiy va mustahkam ekanligini uqtirib, milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyotga unutilmas hissa qo'shgan olimu adiblarning ilmiy va badiiy merosini, mafkuraviy-ma'naviy qarashlarini teran o'rganishga da'vat qilib kelmoqda. Chunki ajdodlarimiz faoliyatida har doim vatanparvarlikning yuksak ko'rinishlari namoyon bo'lib kelgan.

Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk zotlar vatan obodligi, yurt farovonligi uchun tinmay jonbozlik ko'rsatganlar va o'z zamondoshlarini ham shunga da'vat qilganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zbek adabiyotining ulkan namoyondasi, mo'tabar shoir va mutafakkir Alisher Navoiy nomi va asarlarini faxr va g'urur bilan tilga oladilar. Adolatli jamiyat barpo qilishdek ulug'vor va ezgu maqsad haqida, odillik, haqiqat va halollik xususida mulohaza yuritar ekan, o'zbek mumtoz adabiyoti porloq siymosi Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida tasvirlangan bir necha voqea tafsilotiga o'z e'tiborini qaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov oldidan Namangan viloyati saylovchilari bilan bo'lgan uchrashuvdagi nutqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ushbu viloyatning ma'naviy qiyofasini Mahdum A'zam Kosoniy, Boborahim Mashrab, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda kabi buyuk zotlar belgilashini ta'kidlab o'tgan edilar.

Ta'lim tizimidagi islohotlar, ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirish ehtiyoji, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning pedagogik asoslarini tadqiq qilish zaruriyatini qo'ymoqda. Chunki ushbu o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning yosh xususiyatlari, hayotga munosabati jamiyat taraqqiyotida tutadigan o'rni ularda yuksak darajada shakllangan vatanparvarlik tuyg'usi mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muammosi bugungi kunga qadar pedagogika fanida bir qadar ishlangan muammo bo'lsa-da, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida fanlararo aloqadorlikda o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lmaganligini mavzuga oid manbalarning tahlili yana bir marta tasdiqladi. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish uchun mavjud tarixiy tajribalarni o'rganish, umumlashtirish, ularda o'tmish tarixiy tajribasini mintaqaviy-mahalliy tajriba bilan aloqadorligini ta'minlashga oid aniq ilmiy tavsiyalar mavjud emasligi ham namoyon bo'ldi. Bu hol odobnoma, vatan tuyg'usi, o'qish, ona tili va musiqa darslarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish maqsadining ustuvor bo'lishini taqozo qilmoqda. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning maqsad va vositalari uyg'unligini ta'minlash bu o'rinda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda ularning istak va ehtiyojlari doirasida bilim berish jarayonida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Shaxs va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'quvchi shaxsida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muammosining yechimiga ijtimoiy gumanitar fanlarini o'qitish hamda sinfdan tashqari tadbirlar orqali erishish mumkin.

Holbuki, vatanparvar fuqaroning qaror topishi va o'quvchi yoki o'quvchi shaxsining vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish jarayoni o'zining mazmuni va qonuniyatlariga egadir. Bu mazmun va qonuniyatlarini belgilab beruvchi asosiy holat shundan iboratki, o'quvchi yoki o'quvchi vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishi jarayonida o'z xalqining milliy turmush tarzi, hayoti, intilishlarini chuqur his etib, unga qo'shilib ketadi. Faqat shunday taqdirdagina o'quvchi yoki o'quvchida mustahkam e'tiqod, vatanparvarlik, vatanga muhabbat tuyg'usi shakllanadi. Bu tuyg'u o'quvchi yoki o'quvchining milliy va tarixiy voqelik bilan o'zaro aloqaga kirishishi natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishida ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlaridan keng foydalanish katta amaliy ahamiyatga ega. O'quvchi bu voqelikni dars va sinfdan tashqari o'quv faoliyati jarayonida o'zlashtirib oladi.

Hozirgi davrda o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o'rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi.

O'smirlarning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda ahloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan, stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o'rtasida sodir bo'ladi.

Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashgirishtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo'qotish mumkin. Bu davr insonning kamoloti yuqog'iroq bosqichiga ko'tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o'smirdan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, ob'ektlar o'rtasidagi ichki munosabatlarni o'rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, o'zini o'zi nazorat qilish, baholash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Psixologlarning fikricha, o'smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatining mahsuli deb qarash mumkin emas, chunki o'sishning biologik va psixologik qonuniyatlarini inkor qilishga haqiqiy. Shuningdek, o'smirlik davrning muayyan hech o'zgarmas xususiyati va xarakteristikasi mavjud emas. O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta'siri bo'lgan, ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga o'smirlarning jismoniy o'sishi xususiyatlari, jinsiy yetilishining iqlim va milliy-etnografik omillari ham bor.

Bizning nazarimizda, hozirgi paytda o'smirlik davrida etnopsixologik muammolarni o'rganish va ularni psixologik taxlil qilishga e'tibor katta bo'lmoqda. O'smirlarning ma'lum bir millat vakili sifatida, ularning millat vakillaridagi etnik stereotiplarni tadqiq qilish ijtimoiy psixologik maslalardan biridir. Bunda qanday metodlardan foydalanish mumkin?- degan savol tug'ilishi tabiiy. Biz taxlil qilgan adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra etnik xususiyatlarni tadqiq etish qadimdan olib borilgan va qator metodikalar ishlab chiqilgan. Jumladan:

1. Shkalali o'lchov metodlari; ular asosan millat vakillaridagi turlicha etnik ustanovkalarini o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, o'smirlik davridagi o'zgarishlar ta'siri ostida ularning ongidagi milliy psixologik tushunchalar haqida fikr o'y mulohazalarini aniqlash imkonini beradi.. Masalan, Bogardusning mashhur shkalasi: qiyosiy fikrlash yo'li bilan berilgan juftliklar ustanovkalarini xar bir tekshiruvchi tomonidan aniq baholanishiga asoslangan. Yoki

Laykartning "Baholashlar yig'indisi" metodi ham u yoki bu millat vakiliga xos ustanovka fikrlariga tekshiruvchining e'tirozi yoki e'tirofini aniqlash imkonini beradi.

Bu metodlar butun jahon miqyosida ko'pgina tadqiqotlarda ishlatilgan va joy sharoitlariga moslashtirish jihatidan rekord qo'ygan desak bo'ladi.

2. Kuzatish va so'roq metodlari bunda o'sha madaniy muxitga xos bo'lgan, uning bevosita boyliklari hisoblangan moddiy va ma'naviy qadriyatlar, maishiy sharoitlar, odatlar. an'analar tashqi tomondan ob'ektiv kuzatish asosida tadqiq etiladi. So'roq metodlari ichida ko'prok anketa usuli qo'llaniladi, bunda ham o'smirlarning yashash tarzi, turmush tarzi. avtobiografik ma'lumotlari aniqlanib, milliy urf odatlarga munosabati va ularning idrok etish darajasiga ko'ra tekshiriladi. Olingan natijalarga ko'ra o'smirlarning etnik xususiyatlarni anglash jarayonini ilmiy xulosalar kontyont analiz kilinadi.

Amerikalik olimlar D. Kant va Breshshlar so'roq metodining o'ziga xos ko'rinishini etnik steriotiplarni aniqlashda ishlatishgan. Masalan, ular qiziqtirayotgan masala bo'yicha imkoni ko'p javoblar ichidan "O'zinikini" tanlab belgilashni so'rashgan. Bundan tashkari 84 xil sifatni o'z ichiga olgan ro'yxatdan o'z millatiga va boshqa millatga xos bo'lgan 5 etakchi sifatni ajratib berish topshirig'ini berishgan. Shu yo'l bilan etnik steriotiplar aniqlanadi.

3. Proektiv metodlar bu guruxga asosan ROR shaxning "Siyox dog'lari" testi, tematik appertsepsion test (TAT), boshlangan jumalarni tugatish testi, fotosuratlarini baholash testi, Lovyonfel'dning mozaikalari testi va boshqalar kiradi. Mavxum berilgan topshiriqlarni bajarish sifati va javoblarining yo'nalishi bo'yicha turli millatlarga oid stereotiplar shakllantirish mumkin ekanligi aniqlangan..

4. Shaxsning alohida sifatlarini aniqlashga qaratilgan testlar. Masalan, G. Deyker va N. Fridlarning milliy xarakter xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan testlari. Ular asosan shaxsning ta'sirchanligi va hissiy reaksiyalarini o'rganadi.

Bundan tashqari shu gurux testlarga alohida intellektni tekshiruvchi. ma'naviy dunyoqarashni o'rganish, adolat hissini aniqlash badiiy testlar kiradi. Ayniqsa. milliy steriotiplarni aniklashda millatning tilini barcha tilshunoslik uslublari bilan o'rganib chiqish ham juda qimmatli ma'lumotlar to'plash imkonini beradi. Chunki, til u yoki bu millat vakilinnng o'ziga mansub millatga xos milliy qadriyatlarni, steriotiplarni o'zlashtirishida asosiy vosita rolini o'ynaydi. Shuning uchun ham etnopsixolog o'z tadqiqotlarini tilshunos, etnograf, etnolog, sotsiolog, psixologlar va tarixchilar hamqorligida o'tkazadi. Yuqorida aytib o'tilgan metodologik va metodik uslublarni milliy psixologiyani o'rganishda fakat asosiylari xolos.

Chet ellarda va mamlakatimizda olib borilgan ilmiy ishlarni analiz qilar ekanmiz, etnopsixologik tadqiqotlarda xilma xil uslub va metodlar qo'llanilganining guvohi bo'lamiz. Chunki bunday tadqiqotlarda shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi turlicha testlardan tortib, proektiv metodikalar, eksperimentlarning turlicha ko'rinishlari, so'roq metodlari, anketa, interv'yu, sotsiometriya, shakl metodlari va boshqalar qo'llanilganligiga guvoh bo'ldik. Bu metodlar hozirgi kunlarda ham "madaniy muhit va shaxs", guruxlararo munosabatlar hamda qiyosiy tadqiqotlarda qo'llanilmoqda. Bu tadqiqot ishlarini faqatgina ijtimoiy psixologlar emas, balki umumiy psixologiya bilan shug'ullanuvchi olimlar ham o'tkazmoqdalar. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, etnopsixologik metodlarning turli yoshga xos etnopsixologik xususiyatlarni tadqiq qilish uchun yetarli emas. Chunki etnopsixologiya muammosi bilan shug'ullanishni maqsad qilib qo'ygan xar bir tadqiqotchi yo mavjud metodikalardan birini qayta o'zgaritirishga yoki bo'lmasa, o'zicha yangi metodni kashf qilishga majbur bo'lmoqdalar. Nixoyat, etnopsixologik metodlarni qo'llashning noqulayligi shundaki, masalan, Amerikada juda yaxshi natija berib ishonchli ma'lumotlar to'plangan metodika, Osiyo mamlakatlari yoki bizning jumxuriyatimiz sharoitida umuman hech narsani o'lchamasligi mumkin. Masalan, Ravenning matrik testi muxit ta'sirlari daxlsiz deb hisoblangan Kettellning intellekt testi ham baribir, qisman bo'lsada. muxit sharoitlarini hisobga olishni talab qiladi, qolaversa ularni sharhlash masalasida alohida extiyotqorlik zarur. Shuning uchun ham hozirda butun jahon olimlari har qanday madaniy muhitdan ham yuqori turadigan. universal test yoki metodika yaratish fikrining asossizligi xaqida umumiy fikr bildirmoqdalar.

Etnopsixologik tadqiqotlar o'tkazishni maqsad qilib qo'ygan xar qanday tadqiqotchi asosiy prinsiplar sifatida madaniy muxit sharoitlarining xilma xilligi va ularning o'zaro bir birlariga ta'sir ko'rsatishini inobatga olish zarur. Bu narsa etnopsixologik tadqiqotlar olib borishda albatta hisobga olishi kerak.

O'zbekiston sharoitida tadqiqot o'tkazish uchun quyidagi holatlarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

1) shu xudud sharoitida yashovchi barcha millatlarga xos bo'lgan umumiy psixologik omillar va ularni aniqlash usullarini;

2) fakat o'zbek millatiga xos bo'lgan psixologik sifatlar va omillarni aniqlash;

3) aniqlangan omillarni yoki psixologik sifatlarini uchraydigan yoki eksperimental usulda tekshirishga imkon beradigan metodlarni tafsivlash va ularni konkret sharoitlarda moslash;

4) tadqiqotchilar guruxini tekshiralayotgan milliy gurux tilini, urf-odatini biladigan xodimlar bilan ta'minlash. Chunki, tadqiqot ob'ekti hisoblangan guruxda o'sha gurux tilida tadqiqot o'tkazish kerak, toki tekshiruvchilarga qo'yilgan xar bir talab, savol va topshiriqlar ular uchun tushunarli bo'lsin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yoshga xos psixologik xususiyatlarga ko'ra o'smirlik davrida milliy xususiyatlarga nisbatan qarashlarnig shakllanishi o'ziga xos bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, milliy gurux psixologiyasini, undagi etnik stereotiplarni tekshirishga qaratilgan maxsus metodlar yo'q, shuning uchun ham tadqiqotlar mavjud metodlar orasidan keragini tanlab, ularni joy sharoitlariga moslash kerak bo'lsa, u tildan bu tilga tarjima kilish kerak. Tarjima xususida shuni aytish kerakki, maxsus psixologik, testlar yoki metodlarni (anketalar. So'roqlar. shkalalar savollarini) tarjima qilish tarjimondan yuksak bilimdonlik va professional sifatlarinni talab qiladi. Aks xolda, metodika o'z qiymatini yo'qotishi yoki kerakli sifatni aniqlamasligi yoki o'lchamasligi mumkin. Xattoki, noverbal testlarni turli sharoitlarda qo'llab, olingan ma'lumotlarni sharhlash bosqichida uning mazmuni yoki maqsadi o'zgarganligi ko'plab tadqiqotlarida isbotlangan. Shuning uchun ham xar qanday metodik uslubni qo'llashdan oldin uni kichikroq gurux doirasida sinab ko'rish va natijalarni ekspertlarga berib yoki boshqa yordamchi metodlar yordamida qayta sinovdan o'tkazish yo'li bilan tekshirib olish maqsadgamuvofiqdir.

O'quvchilarga vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish ham katta samara beradi. Chunki Vatan - tug'ilgan joy, yashab turgan tuman va viloyatgina emas, balki, birinchi navbatda, ma'naviy tushunchadir. Vatan degan tushuncha muqaddas hisga aylangandagina, vatanparvarlik tuyg'usi paydo bo'ladi. Buning uchun Vatanda yashayotgan xalqning urf-odatlarini, ular muqaddas deb biladigan qadriyatlarni o'rganish, bilish va sevisht lozim bo'ladi. Shuning uchun biz tadqiqotimizda xalq pedagogikasi vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning muhim omili ekanligi haqida ham to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Halqimizning ko'p ming yillik tarixi xashar, halq bayramlari va sayllari, kelin tanlash, muchal to'yi kabi go'zal an'analarning shakllanishiga olib kelganligi haqida atroflicha mulohaza yuritamiz.

Ajdodlarimizning adabiyot va ilm-fan sohalarida yaratgan boy merosi uzoq asrlar davomida dunyo bo'ylab tarqalib kelgan. Hozirda bunday qo'lyozma merosning ko'pgina nodir va yagona nusxalari Yevropa va Osiyoning sharqshunoslik markazlarida avaylab saqlanmoqda. Bularni ilmga olib kirish masalasi ham kun tartibida turibdi.

Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir shoir, olim o'z Vatanini ulug'lagan, uni o'z asarlarida madh etgan. Uning boyliklari, go'zalliklari bilan faxrlangan. Vatan azal-azaldan barcha musulmon xalqlari uchun muqaddas sajdagoh hisoblangan. Shuning uchun ham vatanparvarlik tuyg'usini o'quvchilarda shakllantirish uchun buyuk siymolar ijodini, ularga bosqichma-bosqich izchil tarzda o'rgatib borish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

2.3 Millatlarga xos qadriyatlarning shaxs ongiga psixologik ta'siri.

Millatning o'zini o'zi anglashi-etnik psixologiyaning ancha keyin vujudga kelgan murakkab fenomeni hisoblanib, u milliy ong asosida vujudga keladi va uning tuzilmasiga kiradi. Milliy o'zini o'zi anglash millatning o'z manfaat, maqsad va motivlarini anglab etish darajasini bildiradi. Shuningdek u, millat tomonidan o'zining o'tmish tarixi, etnik kelib chiqishi, milliy g'oyalari, kelajagi, jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini bilishi bo'lib, vatanparvarlik, milliy g'urur, sha'n, burch ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Falsafa, etnologiya, ijtimoiy psixologiyaga oid aksariyat adabiyotlarda milliy ong va milliy o'zini o'zi anglash tushunchalari deyarli farqlanmasdan, sinonim so'zlar sifatida ishlatib kelinadi. To'g'ri, ular o'rtasida mazmunan uzviy bog'liqlik va yaqinlik bor. Ular bir jarayonning turli bosqich va darajalaridir. Shunday bo'lsa ham ularni aloxida - aloxida tushunchalar sifatida o'rganish darkor, Milliy ong etnik taraqqiyotning ilk bosqichlarida vujudga kelgan etnik ongning davomi bo'lib, o'zining ma'lum millatga (etnik birlikka) mansubligini anglash hisoblanadi.

Agar insonning milliy ongi uning milliy mansublikni anglash orqali, millat hayotidagi voqealarga bildirayotgan munosabati bo'lsa, milliy o'zini o'zi anglash esa, milliy manfaatlarni bilish, anglash darajasini bildiradi. Bu daraja nechog'lik yuqori bo'lsa, milliy o'zini o'zi anglash ham shu darajada bo'ladi.

Milliy ongning eng dastlabki ko'rinishi bo'lmish etnik ong yillar davomida emas, asrlar davomida yagona til, hudud, axloq va urf-odatlar birligi asosida vujudga keladi. Bunda ayniqsa, etnos a'zolari kelib chiqishidagi umumiylikni anglash muhim omil hisoblanadi. Etnik birlikning dastlabki ko'rinishlari hisoblangan urug'chilik va qabilalachilik davrlarida bu hil tushunchalar bir tomondan qarindosh-urug'lar o'rtasida quda-andachilik qilish shaklida namoyon bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, kelib chiqishi bir ota-onadan ekanligi xaqidagi tasavvurlarni saqlash shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda umumiy kelib chiqish birorta jonivor nomi bilan bog'lanadi. Buni biz atoqli qirg'iz yozuvchisi Ch. Aytmatovning "Oq kema" qissasida keltirilgan qirg'izlarning Bosh Onasi - Shoxdor, Ona bug'i afsonasida ko'rishimiz mumkin.

Etnik ongning eng muhim ijtimoiy vazifasi - odamning ma'lum etnik guruxga mansubligini anglash va xis qilishini ta'minlashdir. Agar etnik psixologiyada etnik ong va etnik o'zini o'zi anglash kabi muhim komponentlar bo'lmaganda edi, milliy urf odat va an'analar, milliy xarakter, milliy tuyg'ular va didning bir avloddan ikkinchi avlodga o'tishi qiyinlashib qolgan bo'lardi. Milliy ong kotib qolgan narsa bo'lmay, xalqning tarixiy rivojlanishi jarayonida o'zgarib, yuqori bosqichga - milliy o'zini o'zi anglashga o'tadi. Milliy o'zini o'zi anglash millatning birligi va jipsligini ta'minlovchi, millat mavjudligining asosiy omillaridandir. Milliy o'zini o'zi anglashning taraqqiyot darajasi tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Bu ma'lum tarixiy davrlarda millatning ichki muammolariga e'tiborning kuchayishi, o'tmishga qiziqishning ortishi, o'zining og'ir iqtisodiy axvoli sabablarini anglab etishga intilishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Milliy o'zini o'zi anglash millat hayotidagi murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, uning rivojlanishiga jamiyat hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar bilan birga xalqaro hayotidagi voqea va xadisalar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zbekistonning Milliy mustaqillikka erishishi horijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy aloqalari millat vakillari ongida katta o'zgarishlar bo'lishiga, milliy o'zini o'zi anglashning rivojlanishiga va boyishiga olib keldi.

Milliy o'zini o'zi anglashda millat ziyolilari etakchi rol o'ynaydilar. Ular o'z milliy tilida sa'at va adabiyotni rivojlantirish, milliy qadriyatlar uchun qayg'urish orqali milliy manfaat va g'oyalar uchun kurashib, milliy o'zlikni rivojlanishiga xizmat qiladilar. Bu kurash, ayniqsa, milliy til, qadriyatlar kamsitilgan, milliy manfaatlar havf ostida qolgan paytlarda kuchayadi. Milliy o'zini o'zi anglashda ma'lum sub'ektivizm mavjud bo'lib, u muayyan tarixiy va ijtimoiy davrlarda o'z yo'nalishini o'zgartirib turishi mumkin. Ba'zan bu yo'nalish o'z chegarasidan chiqib, "millatchilik", degan havfli, hatarli holatni tug'diradiki, milliy o'zlikni boshqa etnik guruxlarga qarama - qarshi qo'yish, milliy mahdudlik kabi nomaqbul ko'rinishlarga aylanadi. Milliy mansublikni anglash bilan bog'liq xususiyatlar ancha barqaror bo'lib, doimo ijtimoiy-siyosiy, tarixiy o'zgarishlar ta'siriga berilmasligi yoki nisbatan kam berilishi mumkin. Shuning

uchun bo'lsa kerak, tarix taqqozasi bilan o'z Vatanidan ajrab boshqa yurtlarga borib qolgani va u erda uzoq vaqtlar davomida yashayotgan kam sonli millat vakillarida milliy ongning shakllanishi va saqlanishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida kechadi. Ularning milliy tilni saqlash, milliy urf-odat va an'analarga rioya qilish imkoniyatlari, milliy qadriyatlar bilan bevosita aloqasi ma'lum darajada cheklangan. Bunday sharoitda har bir avlod vakilida etnik ong katta avlod tomonidan berilayotgan ma'lumotlar, oila a'zolari va yaqin qarindoshlar o'rtasida so'zlashuv vositasi hisoblangan ona til, milliy madaniyat xaqidagi bilimlar asosida vujudga keladi. Turli davrlarda uzoq ajnabiy yurtlarga borib qolgan millatdoshlarimizning hayoti bunga misol bo'la oladi. Hususan, Amerikada yashayotgan o'zbeklar bir-birlari bilan yaqin munosabatlarni saqlash, o'zaro suxbatlarni ona tilida olib borish, milliy taomlar tayyorlashga va yana eng muhimi o'zaro quda-andachilik qilishga harakat qiladilar.

Umuman bir necha o'n va yuz yillar davomida ajnabiy yurtlarda yashayotgan millatdoshlarimizning psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish tadqiqotchiga muhim ma'lumotlar berishi mumkin. Etnik birlik kattaroq va kuchliroq etnos qurshovida qolganda, yoki tazyiqqa uchraganda, etnik ong an'anaviy moddiy va ma'naviy madaniyatning turli shakllariga til, din, urf-odat, qadimiy qo'shiqlar, milliy kiyim ta'sir ko'rsatib, etnik xususiyatlarni himoyalashga, saqlab qolishga yordam beradi. Shulardan ko'rinib turibdiki, etnik ong etnik jarayonlarning mahsuli bo'libgina qolmay, shuningdek, etnik jarayonning ma'naviy sohasiga ta'sir etuvchi omil rolini o'ynaydi.

Totalitar tuzum - sho'rolar davrida o'zbek millatining o'zini o'zi anglashi o'z tarixi, madaniy merosi, buyuk ajdodlar hayoti va ijodini o'rganishga qiziqishning ortishida, milliy tilning ijtimoiy va xuquqiy vazifalarini kengaytirishdagi harakatlarda, moddiy va ma'naviy boyliklarni saqlashdagi intilishlarda, O'zbekistonning real mustaqilligini ta'minlash uchun qilingan siyosiy say'-harakatlarda ko'rindi. Ma'lumki, xar bir individ shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat o'zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta'siri ostida ham shakllanadi. Bunda ayniqsa, xar bir halqqa xos bulgan milliy urf-odat va an'analarning roli kattadir. Shunday ekan etnopsixologiyaning asosiy o'rganish ob'ektlaridan bo'lgan urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlarni atroflicha o'rganish, ularni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, saqlanishi va o'zgaruvchanligi kabi qonuniyatlarini ochib berish ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatga molikdir.

Xar bir davrning, xar bir halqning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik sharoitiga mos bo'lib tushadigan va uni o'zida aks ettiradigan urf-odat va an'analari bo'ladi. Odamzot ongli hayot kechira boshlagandan buyon vujudga kelgan urf-odatu marosimlar, udum va an'analarni hisoblab chiqish qiyin. Milliy urf-odat va an'analarda butun bir halqning ijtimoiy extiyojlari, axloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlangan bo'ladi. Ular halqning faoliyati jarayonida tug'iladi. Xar bir halq butun tarixi davomida yashash sharoitining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kishilar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum norma va yo'l yo'riqlarini yaratadi. Bu norma va yo'l - yo'riqlar avloddan-avlodga o'tishi bilan takrorlanib, urf-odat va an'analarga aylanib qoladi. Shakllangan urf-odat va an'analalar shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida shaxsning xulq-atvorlarini ijtimoiy jihatdan belgilovchi, boshqarib turuvchi va shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Qaysi bir urf-odat va an'anani, udum yoki marosimni ularning kelib chiqish sabablarini o'rganmasdan turib qaraydigan bo'lsak, ular bir qarashda, bemani, bexuda bo'lib ko'rinadi. Aslida esa ularning barchasi kelib chiqishi bo'yicha halqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan va ularning ma'lum moddiy va ma'naviy extiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan.

O'rta Osiyo va Kavkaz halqlarining ayrimlarida mavjud bo'lgan va hozirgi kunda eskilik sarqiti, deb qoralanadigan "qalin" berish odatini o'rganishgan ba'zi olimlar, hozirgi davrga kelib, bu odat faqat ramziy qimmatga ega bo'lib qolganini ko'rsatishdi. Ma'lumki, ekzogam nikoxi xukm so'rgan davrlarda qiz olish va qiz berish bir qabila yoki urug' doirasida bo'lmasdan,

boshqa qabila va urug'lar bilan bo'lar edi. Bir qabila boshqa qabilaga qiz bergandan keyin, qiz bergan kabila yoki oila zaiflashib qolmasligi uchun ular ham albatta qo'shni qabiladan qiz olishlari va shu bilan aholi o'sish nisbatini va iqtisodiy balansini saqlab turishlari kerak bo'lgan. Lekin ayni shu paytda qo'shni qabilada bo'yi yetgan qizning bo'lmasligi yoki 1-qabilada uylanadigan yigitning bo'lmasligi natijasida bunday teng holda qiz almashtirishlar juda kam paytlardagina amalga oshgan. Bunday hollarda yigit tomon qiz tomonga qiz berish imkoniyati kelgunga qadar turli-tuman mol-dunyo hisobida kafolat yoki xozirgi tushunchamizcha "qalin" berib turgan.

Bu fikrning to'g'riligini shundan ham ko'rsak bo'ladiki, ekzogam nikoxning qo'llanishligi majbur bo'lmagan O'rta Osiyo halqlarida qalin berish hodisasi, deyarli uchramaydi. Uchrasa ham ekzogam nikoxi qo'llaniladigan halqlar darajasidagi shakl va mazmunda emas. Shuningdek, xar bir halqda u yoki bu narsalarga nisbatan turli taqiqlar, tabu-qatog'onlari mavjud bo'ladi.

Kuzatishlar, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli halqlardagi taqiqlar, man etishlarning hammasi ham be'mani va zararli bo'lmay, ma'lum zarurat bilan vujudga kelar ekan. Ya'ni ular halqning yashash tarziga, ehtiyojlariga mos kelganligi uchun ham asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, odat va an'analar halq hayotiga, turmush tarziga ongli ravishda kirib keladi, lekin ularning ta'siri esa stixiyali bo'ladi.

Shuning bilan birga ayrim urf-odat va an'analar o'z umrini o'tab bo'lgan bo'lsa ham, yashovchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun yana uzoq vaqt saqlanib, odamlar ongiga ta'sir etib turadi. Bu narsa insonlar psixologiyasi bilan bog'lik bo'lgan fenomen hisoblanadi. Chunki, mustaxkamlanib qolgan urf-odat va an'analarga amal qilmaslik ko'pchilik tomonidan qoralanadi. Ko'pchilikning ta'na-malomatiga qolishdan qo'rqish va tortinish, jamiyatning xar bir a'zosini urf-odatlariga ongli yoki ko'r-ko'rona bo'lsa ham amal qilishga majbur qilib qo'yadi.

Urf-odat va an'analar ko'pincha sinonim so'zlar sifatida ishlatilsa ham, bu terminlar tushunchalar o'rtasida faqat terminologik tafovut bo'lib qolmasdan, yana ma'no jihatdan ham farq bordir.

Urf-odatlar asosan oilaviy, maishiy sohalar bilan bog'langan bo'ladi va unda axloqiy, diniy va xuquq normalari to'la o'z aksini topadi.

An'analar esa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida mavjud bo'lish bilan birgalikda, yana ishlab chiqarish jarayonini ham qamrab oladi. An'anada kishilarning narsa va buyumlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. Ma'lumki, fanda, san'at va adabiyotda, armiya va oliy o'quv yurtlarida, sport va ishlab chiqarish jamoalarida urf-odat bo'lmaydi, balki an'analar mavjud. Masalan, armiyaga yangi borgan soldatning qasamyod qabul qilishi, oliy o'quv yurtiga kirgan yoshlarni talabalar safiga qabul qilish tantanalari, yirik sport musobaqalarida g'olib sportchi sha'niga mamlakat bayrog'ini ko'tarilishi va madxiyasini yangrashi - bular an'alar hisoblanadi. Bundan tashqari an'ananing ta'sir doirasi nisbatan keng bo'lib, bitta an'ana bir necha urf-odat, udum va marosimlarni o'zida qamrab olgan bo'lishi mumkin. Misol tariqasida halqimizda mavjud bo'lgan mexmondo'stlikni olib qaraydigan bo'lsak, mexmondo'stlik u yoki bu darajada xar bir halq va millatga xos bo'lgan xususiyatdir. Lekin bu narsa yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ta'siri ostida, oillaviy-maishiy hayotdagi munosabatlar natijasida o'zbek halqida o'ziga xos bir yo'sinda namoyon bo'ladiki, bu o'zbek halqining milliy xususiyatiga, milliy an'anaga aylanib qolgan. Mana shu mexmondo'stlik an'anasi bir necha urf-odatlar, udumlar orqali to'la namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek oilalarida mexmon xar doim ochiq chexra va shirin kalom bilan kutib olinadi. Xonadondagi eng yaxshi va noyob narsalar (bunday narsalar doimo "mexmon uchun", deb saqlanadi) mexmon oldiga qo'yiladi. Mexmon xonadonga kirib kelishi bilan mezbon ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, "xush kelibsiz", deb kutib olinadi va xurmatli zot sifatida eng yuqori joyga o'tkaziladi. qo'ni-qo'shnilar chaqirilib mexmonga hamsuxbat va ulfat qilinadi. Ovqat ham birinchi bo'lib, yoshidan qat'iy nazar mexmonga tortiladi. Mexmon boshlamaguncha, oilaning birorta a'zosi birinchi bo'lib taomga qo'l urmaydi. O'tirishdagi birinchi so'z ham mexmonga beriladi, uning so'ziga diqqat bilan quloq solinadi. Unga e'tiroz bildirish, gap qaytarish, katta ayb hisoblanadi. Mexmon oldida

oila a'zolari bir-birlari bilan xushmuomalada bo'lishlari, xatto "mushugini ham pisht", demasligi kerak. Mexmon kuzatilayotganda kutib olish chog'idagidek, ikki qo'l ko'ksida bo'lib, "xush ko'rdik", "yana kelib turing", deb xayr-ma'zur qilinadi. Kavkazdagi tog'li halqlarda xun olish bor. Agar xundor dushman uyi ostonasidan kirib kelsa, dushmanlik yo'qoladi. Ham uni aziz mexmondek kutib olishi shart. qishloqdan, ovuldan chiqib ketgach, dushmanlik yana tiklanadi.

Endi udum va marosimlarga kelsak, ular kuchli psixologik va xissiy ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, ular yordamida urf-odat va an'analar bevosita yuzaga chiqadi. Udum u yoki bu urf-odat va an'ananing bajarish vaqtida amal qilinadigan tartib va qoidalaridir. Marosim esa, udumni ko'z-ko'z kilib turadigan tashki bezagi va tasviri, ya'ni bajarilish jarayonidir.

Ijtimoiy mazmuni va ahamiyatiga qarab urf-odat va an'analar ilg'or va qoloq bo'ladi. Ilg'or urf-odat va an'analar keng halq omma manfaatlariga xizmat qiladi va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qoloq urf-odat va an'analar deb, umrini o'tab bo'lgan davr ruxiga mos kelmaydigan, ijtimoiy hayot taraqqiyotiga monelik qiladigan urf-odat va an'alarga aytiladi. Shuning uchun ham urf-odat va an'analarni o'rganishda, rioya qilishda, nihoyat darajada extiyotkorlik bilan yondoshish zarur bo'ladiki, shoshma-shosharlik bilan ular to'g'risida xukm chiqarish, noroziliklarga va tuzatib bo'lmas xatolarga olib kelishi mumkin.

Bizning asosiy vazifamiz va burchimiz ajdodlarimizdan yetib kelgan ko'plab urf-odat, an'ana, udum va marosimlarni xar tomonlama o'rganish, asrlar sinoviga bardosh bergan va davr sinoatidan o'tgan, turmushimizga fayz kiritadigan, kishilarni yetuklikka chorlaydigan ilg'or urf-odatlarimizni saqlab qolishimiz va aksincha, qachonlardir turli sabablar bilan vujudga kelgan, endilikda o'z umrini yashab bo'lgan, qop-qorong'u tun kabi dilimizni siyoh qilayotgan, eng muximi jamiyat taraqqiyotiga monelik qilayotgan urf-odat va an'alardan voz kechishimiz kerak. O'zbek halqining mexnat, vatanparvarlik, insonparvarlik, mexmondustlik, hovli-joyini ozoda tutish, rizqi-ro'zimiz bo'lgan turli-tuman noz-ne'matlarni e'zozlash va shunga o'xshash bir qancha milliy urf-odat va an'analari borki, ularni o'rganish, yoshlarni shu an'analar ruxida tarbiyalash katta ahamiyatga ega.

Ota-ona xurmatini bajo keltirish, keksalarni e'zozlash kabi odat va an'analar o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga singdirilib boriladi. Ota-ona va kattalar, yoshlarga boshqalar bilan muomala qilish va munosabatga kirishish yo'l-yo'riqlarini o'rgatib, odamiylikdan, insonparvarlikdan saboq berib borishadi. O'zidan katta yoshda bo'lgan kishilarni xurmatlash bilan bog'lik bo'lgan an'anaga ko'ra, yoshlar ularni ko'rganda tanish-tanimasligidan kat'iy nazar ularga birinchi bo'lib salom berishi, yulda uchratganda birinchi bo'lib ularni o'tkazib yuborishi, gaplashganda muloyim gaplashishi, ularga ters javob bermasligi, doimo "Siz," deb muomalada bo'lishi, ularning ismi, laqabini aytib chaqirmasligi, qo'lidan yukini va yumushini olishi hamma yerda ham ularga joy bo'shatib berishligi va shunga o'xshash odob normalariga rioya qilishligi kerak bo'ladi. Xar bir qariya, yoshi katta kishi o'zlari shaxsan tanimagan yoshlarga ham pand-nasixat kilishi, tanbex berishligi mumkin. Yoshlar ham ularning so'zini bo'lmasdan tinglashi va bundan jaxli chiqmasligi kerak.

O'zbek oilalarida o'tadigan biron-bir yig'ilish, marosim, tantanali tuy-tamoshalar, xashar va obodonlashtirish ishlari "aklning ko'zi" bo'lgan nuroniy keksalarimiz maslaxatisiz, ishtirokisiz o'tmaydi.

Uzoq safarga ketayotgan va qaytib kelgan xar bir kishi, albatta, maxalla va qishloqning hamma keksalarini va xasta bo'lib yotgan kishilarni borib ziyorat qilishi zarur. Agar safardalik davrida, maxalladagi biror kishi vafot etgan bo'lsa, birinchi navbatda uning oilasiga borib taziya bildiriladi.

Millatimizning asriy an'nana va urf-odatlari, milliy xususiyatlarimizni bilmasdan, hisobga olmasdan turib milliy mafkurani shakllantirish mumkin emas. Bunda "G'arb halqlari uchun notanish, ammo milliy tabiatimizga mos bo'lgan o'z-o'zini boshqaruv usuli-maxallani rivojlantirish hamda uning mavqeini oshirish" kerak.

Jamiyat hayotida totuvlik va ijtimoiy tarbiyani tashkil kilishda maxallaning ahamiyati beqiyosdir. Tabiat qiyinchiliklarini, tashqi xavf-xatarlarni birgalikda yengish, qurilish va obodonlashtirish ishlarini tashkil etishda kuchlarni birlashtirish, yaxshi-yomon kunlarda bir-

biriga yelkadosh bo'lishga intilish tuyg'usi o'zaro mexr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar maxallalarda shakllangan va avloddan-avlodga o'tib kelgan. Maxallani o'zini o'zi boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin.

El-yurtga manzur bo'lgan, el bilan shaxs o'rtasida g'ov bo'lib yotmagan, eng muximi, el shaniga dog' tushirmaydigan, halq dohosi yaratgan eng yaxshi urf-odat va an'analarning umri boqiy bo'ladi. Ular xar doim e'zozlab, saqlanib kelinadi. Zero, bunday an'alarimiz, birinchidan, xozirgi kunda ham o'z kimmatini yo'qotmasdan, yangidan-yangi mazmun va shakl bilan boyib, fozil insonga xizmat kilib kelyapti.

An'anaviy xarakterga ega bo'lgan o'zbek halqining mexmondo'stligi ham xozirgi davrda yangi ijtimoiy mazmun kasb etib, halqlar do'stligi va boshqa halq vakillariga bo'lgan xurmat-extiromimizni ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'lmokda.

Xech bir avlod o'zigacha yaratilgan va to'planib kelingan madaniy meroslarsiz, bilim va an'alarsiz yashay olmaydi. Ma'lum bir jamiyatda yashar ekan u, ajdodlar tomonidan to'plangan meroslarni hayotining birinchi kunidanok o'zlashtirib boradi. Shuning uchun ham halq hayotiga singib ketgan urf-odat va an'analarni xech qanday farmoyish va ma'muriy yo'l bilan yo'qotib bo'lmaydi.

Lekin madaniy merosimizni o'rganishda ilg'or urf-odat va an'analarni eski an'analardan farqlashda ba'zan noto'g'ri yondoshishlar ham bo'lganligini ta'kidlash kerak. Masalan, yaqingacha aholi o'rtasida keng tarqalgan. "Navruz bayram"iga asossiz ravishda diniy tus berilib, noto'g'ri asosda tanqid qilinib, man etib kelindi. Kelib chiqishi va mazmuniga ko'ra "Navruz" bayramini diniy ham, konservativ ham, deb bo'lmaydi. Uni o'tkazish rasm-rusumlari, udumlari bahor faslining kirib kelishi va rizqi-ro'z bo'lgan ekin-tikin ishlarini boshlab yuborish quvonchlarini tarannum etadigan halq tantanasidir. Navruz - Sharq halqlarida Yangi yilning kirib kelishidir.

Urf-odat va an'alar xar bir halqqa abadul-abad berilgan va xech o'zgarmaydigan narsa emas. Hayot ularni g'alvirdan o'tkazib, puchagini puchakka, sarasini sarakka ajratib beradi. Yangi davrga moslasha olgani saqlanib qoladi. Shuning bilan birga xar bir davr o'zining udum va marosimlarini, urf-odat va an'alarini yaratadi. Yangi vujudga kelayotgan urf-odatlar o'z-o'zidan, quruq yerda paydo bo'lmasdan, asosan ikki man'ba - birinchisi, ilgari mavjud bo'lgan ilg'or an'alar zamon ruxiga moslashtiriladi, ikkinchisi, boshqa halqlar bilan bo'ladigan iqtisodiy, ma'naviy alokalar natijasida ulardagi ilg'or an'alar o'zlashtiriladi.

Keyingi yillarda xukumatimiz tomonidan jamiyat ichidagi "kichik jamiyati nomini olgan maxallarga katta e'tibor berish bilan birgalikda, maxallaning jamiyatni boshqarishdagi vaziyatlarini kengaytirib, mavkeni oshirib borayapti. Davlatni boshqarishning ayrim funksiyalari unga o'tayapti.

Yangi marosim, urf-odat va an'analarning vujudga kelishini o'z holiga tashlab qo'yilmasdan, uni yaratishga butun jamoatchilik bosh-qosh bo'lib turishi, unga ijodiy yondoshish kerak bo'ladi. Jamiyat, halqning turmush tarziga va etnik xususiyatlariga mos keladigan ijtimoiy g'oyalar bilan sug'orilgan yangi urf-odat, an'ana va marosimlarga keng yo'l ochib, turmushga singdirib borish zarur. Albatta bunda sun'iylikdan, ma'muriy buyruqbozlik bilan ta'sir ko'rsatishdan qochish kerak.

Ba'zi joylarda eski, kolok urf-odatlarining saklanishi, odamlarga yokkanligi yoki unga kuchli e'tikod kilganliklari uchun emas, balki ularni inkor etuvchi, sikib chikaruvchi, ular urnini bosuvchi yangi marosim va urf-odatlarining yukligidir. qoloq urf-odat va an'analarni farmoyish va buyruqbozlik bilan osonlikcha yo'kotib bo'lmaydi. Ular kuchli va jozibali, yangi urf-odat va marosimlar bilan siqib chiqariladi. Urf-odat va an'alarda halqning yashash tarzi, turmush sharoitlari, xujalik yurgizish xususiyatlari, iqtisodiy imkoniyatlari, ma'naviy olami kabi tomonlar uz aksini topadi. Shuning uchun ham urf-odat va an'analarning asosiy moxiyat va mazmuni saklangan xolda turli davrlarda ma'lum modefikatsiyaga uchraydi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.

Milliy psixologik xususiyatlarning yoshlar ongiga singdirishni o'ziga xos jihatlarini tadqiq etar ekanmiz, aniqlangan va olingan tajriba natijalariga asosan ta'kidlash joizki, milliy birlikni

muhofaza etish jarayonlari zaiflashgan davlat homiyligida emas, balki asosan aholi turli tabaqalariga mansub oddiy insonlar, ziyolilar, hunarmandlar, dehqonlar, umuman olganda jamiyat kuchi vositasida amalga oshirilib kelindi va quyidagilarda o'z ifodasini topdi;

Bizning fikrimizcha, bolalar o'zlarining u yoki bu etnik birlikka mansubliklarini, avvalo, ota-onalarining qaysi etnik birlikka mansubliklarini anglash orqali bilib oladilar.

Ota-onalari turli millatga mansub bo'lgan bolalar ota-onalaridan birining millatini qabul qiladi. Bu esa oila yashayotgan mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, xuquqiy, madaniy-maishiy kabi bir qancha vaziyatlarga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha bunda etnik vaziyatlar, ota-ona mansub bo'lgan etnoslarning son nisbati ham muhim rol o'ynaydi.

Milliy mansublikni anglash, insonning butun umri davomida saqlanib, boshqa yurtlarda yashayotganda ham unutilmaydi. Aksincha, o'z etnik guruxini, yurtini sog'inish, qumsash sifatida namoyon bo'ladi. Shahsning hulq-atvorlariga va boshqa ruxiy xususiyatlariga ta'sir etib turadi.

3.BOB. O'smirlar ongida etnik xususiyatlarni shakllantirishning amaliy asoslari

3.1 O'quvchilarda vatanga sadoqat hissini shakllantirish dolzarb pedagogik va psixologik muammo sifatida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida ta'kidlaganidek: « Biz uchun eng asosiy, eng muhim ustivor maqsad tengsiz oliy ne'mat mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, ximoya qilish va mustahkamlash bo'lib qolaveradi. Zero, ma'naviy yetuklikning muhim belgisi vatanparvarlikdir». Vatanparvarlik-umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikning asosiy tamoyillaridan biridir.

«Vatan» arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida «ona-yurt» degan ma'noni anglatadi. Vatanga muhabbat, yurtga muhabbat har bir millat kishisiga xos bo'lgan muqaddas va ulug' qadriyatdir.

Vatanparvarlik har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yeriga, ota-ona, aka-uka, opa-singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi.

Vatanparvarlik - bu umuminsoniy qadriyat bo'lib, har bir kishining Vatanga bo'lgan sodiqligini, sadoqatini ifodalaydi.

O'zbekistonda yashayotgan turli millat vakillari Vatanga muhabbat va sadoqat bilan xizmat qilish, uning mustaqilligi, obodligi, ozodligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlashda faol ishtirok etmoqdalar.

Respublikamiz fuqarolarining vatanparvarligi, o'z vatanini sevishi unga bo'lgan iliq tuyg'usida ifodalanadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: «Vatan hissi -shu vatanning egasi bo'lmish halqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodir bo'lganligini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Vatan va halq egizak. Birini his etish uchun ikkinchisini bilmoq kerak.

O'zbekiston deganda, o'zbek halqini, o'zbek deganda O'zbekistonni tushunmoq kerak. Birisiz ikkinchisini his qilish mutlaqo mumkin emas.».

Darhaqiqat, Vatan tuyg'usini o'zida mujassam etgan kishigina jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashadi. Shunday ekan, O'zbekistonda yashovchi har bir kishi kelajagi buyuk bo'lgan mustaqil davlatimizni umumbashariyatga tanishtirishda va xalqlarimiz o'rtasidagi inoqlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashda yagona maqsad sari intilmog'i kerak. Ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni, jumladan, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur o'quv yurtida tahsil olayotgan o'quvchilar mikrosotsiumda o'zlarining munosib o'rinlarini topishlari, jamiyat va Vatan ravnaqini uchun sidqidildan xizmat qilishlari, fidoyilik ko'rsatishlari, safarbarlik xislatlarini namoyon qila olishlari uchun ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish nihoyatda zarur. Shuni alohida ta'kidlash kerakki,

Vatanga sadoqat hissini shakllantirish jarayonida o'quvchilarning yangidan yangi ma'naviy ehtiyojlari paydo bo'ladi. Shu ehtiyojlarni qondirishga harakat qilish esa o'quvchida o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga intilish, izlanishni qaror toptiradi. Bu harakat bolaning o'quvchilik davrida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mavzu jihatidan turlicha bo'lgan bolalarbop qo'shiqlarni muntazam ravishda o'rganib borish, ijro etish maktab o'quvchilarining nafaqat repertuarini boyita boradi, balki ularning milliy ma'naviyatimizga bo'lgan muhabbatini oshiradi, umumiy dunyoqarashlarini kengaytiradi va axloqiy tuyg'ularining shakllanishiga yordam beradi. Bu tuyg'ular g'oyat ko'p qirrali va xilma-xildir.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya oldida to'rgan asosiy maqsadlardan biri - yosh avlodga ajdodlarimizning asrlar davomida orttirilgan ma'naviy boyliklarini singdirish, ularda insoniy fazilatlarni qaror toptirish va muntazam rivojlantirib borish, atan va millat oldidagi burch va mas'uliyatini his etishga o'rgatishdan iboratdir.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'quvchilarning vatanga, mehnatga, insonlarga bo'lgan muhabbati kabi serqirra manbalari unda ma'naviy ehtiyoj va qiziqish uyg'otishda, ma'naviy faoliyat va qadriyatlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy manbalar o'quvchida ma'naviy fazilatning tarkibiy qismlarini shakllantirish vositasidir.O'quvchilarning ma'naviy fazilatlari ularning aqliy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy,

huquqiy, ekologik, estetik, badiiy, diniy madaniyat kabi ko'pqirrali tarkibiy qismlaridan iborat. Musiqa ta'limi jarayonida ma'naviy fazilatning tarkibiy qismlari o'quvchi ongiga o'zaro birlik va aloqadorlikda singdiriladi. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarda insonparvarlik, sadoqat, qanoat, mehr-muhabbat, adolatparvarlik, nafosat, e'tiqod, mehnatga ijobiy munosabat, din va bid'atni bir-biridan farqlash, tabiatga muhabbat, burch va huquqni anglash kabi yuksak ma'naviy fazilatlar shakllanib boradi.

«Yangi XXI asr globallashuv, taraqqiyot asri, faqat intellektual jihatdan yuksak rivojlangan davlatlarga dunyoda ustuvor mavqe egallaydigan davr bo'lishi barchamiz uchun ayon. Mana shu yo'lda mustaqil O'zbekiston davlati taqdirini o'z qo'liga olib, yangi hayot, jamiyat qurishga, kelajagini jahon hamjamiyatining uzviy bir qismi sifatida tashkil etishga kirishdi. Zahmatkash xalqimiz o'zining fidoiy mehnati bilan dunyoda hech kimdan kam bo'lmay, taraqqiy topgan mamlakatlar qatoridan o'rin olib, tinch, farovon va osuda hayot kechirishga haqlidir. Lekin bu yo'l juda murakkab yo'l bo'lib, u jamiyat a'zolaridan fidoyilik, vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ulari ustuvor bo'lishini talab qiladi. Buning uchun jamiyat hayotining ertangi kunini yaratadigan yoshlarda xuddi mana shu tuyg'ularni shakllantirish zarur. Mana shunday mashaqqatli va sharaflil kurashlarda, buyuk intilishlarni amalga oshirishda, el-yurt uchun o'zini ayamadan xizmat qilishda, kerak bo'lsa, jonini fido etishda yosh avlod doimo o'rnak va ibrat bo'lib kelgan». Shunday ekan, bugungi yosh avlodni vatanparvar, tashabbuskor, fidoyi inson sifatida tarbiyalash muhim vazifaga aylandi. Buning uchun ularga milliy qadriyatlarni chuqur anglatish, qalbiga singdirish lozim. Busiz barkamol insonni, uning shaxsiyatini to'g'ri shakllantirib bo'lmaydi.

Chunki «Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»

Demak, barkamol insonsiz chinakam xalq manfaatiga xizmat qiladigan jamiyatni barpo qilib bo'lmaydi. Bu borada so'z san'ati bo'lgan adabiyotning o'rni juda kattadir. Chinakam vatanparvar, barkamol insonni shakllantirishda ta'lim-tarbiya jarayoni imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ta'lim jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi o'quv fanlari – odobnoma, o'qish, vatan tuygusi, musika, ona tili darslarida beriladigan o'quv materiallari mazmunida o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallari miqdorini muntazam ko'paytirish, sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida ushbu tuyg'uni jadal tarkib toptirishga yo'naltirilgan tadbirlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

3.2 Milliy mansublikning psixologik xususiyatlari

Milliy ozodlik uchun kurashayotgan millatda milliy ong ezuvchi millatga nisbatan millatchilik ko'rinishida namoyon bo'lishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Zero, milliy o'zini o'zi anglashning dastlabki bosqichlarida o'z millatining tarixi, buyuk shaxslari bilan faxrlanish, uni ko'klarga ko'tarish, o'z yozuvchilari bo'lgan millatga qarama-qarshi qo'yish tarzida bo'ladi. Buni biz barcha milliy ozodlik harakatini boshidan kechirgan xalqlar tarixida ko'rishimiz mumkin. Hususan, XIX asr boshlarida ijod qilgan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, A. Qodiriy, Avloniy kabi ijodkorlar faoliyati bunga misol bo'la oladi, XX asrning 80-yillar oxiri sobiq Ittifoq atalmish imperiyaning qulashi arafasida buyuk bobomiz Amir Temur nomining tiklanishi, milliy bayroq misoli adlda ko'tarilishi, shu bayroq ostida millatni birlashtirish uchun harakat qilinishi bejiz emas edi. Buning uchun bobomiz, hayoti va faoliyati, qahramonlikliklari xaqida yozilgan kitoblar chop etila boshlandi. Tarixiy haqiqat tiklanib, uning jahon tarixidagi o'rniga berilgan baholar bilan millat tanishtirildi millatning egilgan sha'ni, g'ururi tiklana boshlandi. Alloma bobolarimiz Buxoriy, Yassaviy, Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Zamahshariy kabilarning nomlarini xalqqa kaytarilishi, ularning kitoblarini chop etilishi kabi jarayonlar millatning o'zini o'zi tanishini yuqoriroq bosqichga olib chiqdi.

Afsuski, xozirgi paytgacha, fanda individda o'zining etnik birlikka mansubligini anglash, ya'ni etnik ong necha yoshdan vujudga kelishligi va bu jarayon qanday bosqichlarda o'tishligi aniqlanmagan. Shveysariyalik psixolog Jan Piaje ikki yuzga yaqin bolalarni muayyan vaqt davomida kuzatish va o'rganish orqali ularda xech qanday millatchilik va milliy

mansublikni anglash kabi bilim va xususiyatlar bo'lmashligini, ya'ni bolalar o'zlarining eng dastlabki rivojlanish bosqichlarida "internatsional" bo'lishligi, etnik xususiyatlar va etnik ong keyinchalik, ma'lum ta'lim-tarbiya va ijtimoiy muhit orqali shakllanishini aniqlagan. Bizning fikrimizcha, bolalar o'zlarining u yoki bu etnik birlikka mansubliklarini, avvalo, ota-onalarining qaysi etnik birlikka mansubliklarini anglash orqali bilib oladilar. Ota-onalari turli millatga mansub bo'lgan bolalar ota-onalaridan birining millatini qabul qiladi. Bu esa oila yashayotgan mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, xuquqiy, madaniy-maishiy kabi bir qancha vaziyatlarga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha bunda etnik vaziyatlar, ota-ona mansub bo'lgan etnoslarning son nisbati ham muhim rol o'ynaydi.

Milliy mansublikni anglash, insonning butun umri davomida saqlanib, boshqa yurtlarda yashayotganda ham unutilmaydi. Aksincha, o'z etnik guruxini, yurtini sog'inish, qumsash sifatida namoyon bo'ladi. Shahsning hulq-atvorlariga va boshqa ruxiy xususiyatlariga ta'sir etib turadi. O'smirlarda hamkorlikka intilish, shaxslararo o'zaro munosabatlarga kirisha olish, atrofdagilarni emotsional va ratsional tushuna olish, o'zini o'zi nazorat qila olish, sharoitga qarab xulq-atvorning adekvat tipini tanlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish ularning millilika bo'lgan moslashuvning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi. O'smirlik yoshida milliy xususiyatlarni shakllantirish va ularga nisbatan munosabat motivlarini rivojlantirish hamda moslashuv jarayonining qiyin kechishi o'zini o'zi baholash tizimining pasayishiga, emotsional beqarorlikka, xavotirlanish darajasining yuqori bo'lishiga, nizolarga moyillikning kuchayishiga olib keladi. Barqaror-ekstravert va beqaror-ekstravert tipga mansub o'smirlarda moslashuv darajasi yuqoriroq ko'rsatkichlarga ega, biroq korrelyatsion tahlil ekstraversiya-introversiya ko'rsatkichlari va moslashuv darajasi o'rtasida ishonchli aloqadorlik mavjudligini ko'rsatmadi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik yoshida rivojlanishning murakab jarayonlari yuz berishi, ulardagi xissiy emotsional xususiyatlarning yaqqol namoyon bo'lishi yuqori bo'lishi ularda barcha ijtimoiy xodisalarga nisbatan turli yondashuvlarni shakllantiradi. Bu vaqtdagi to'g'ri ta'lim tarbiyani tashkil etish va ularga xar bir millatga xos xususiyatlarning qadr qimmatini tushuntirish muhim hisoblanadi. Bu jarayonlar biz o'rgangan va taxlil qilgan xolatlar asosida o'z isbotini topdi deb aytishimiz mumkin.

Jamiyat doimiy taraqqiy etib boradigan ko'p sonli jamoalarning sistemasi bo'lib xizmat qiladi. Milliy mansublikni anglash, insonning butun umri davomida saqlanib boshqa yurtlarda yashayotganda ham unutilmaydi. Aksincha, o'z etnik guruxini, yurtini, yurtini sog'inish, qo'msash sifatida namoyon bo'ladi. Shahsning xulq - atvorlariga va boshqa ruxiy xususiyatlariga ta'sir etib turadi.

Bizning fikrimizcha, bolalar o'zlarining u yoki bu etnik birlikka mansubliklarini, avvalo, ota-onalarining qaysi etnik birlikka mansubliklarini anglash orqali bilib oladilar. Ota-onalari turli millatga mansub bo'lgan ota-onalardan birining qabul qiladi. Bu esa yashayotgan mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy -iqtisodiy xuquqiy, madaniy -maishiy kabi bir qancha vaziyatlarga bog'lik bo'ladi.

Xulosa

O'smirlar ongiga etnik xususiyatlarini shakllantirishni aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari nazarda tutilgan ilmiy farazlarni tasdiqladi. Olingan empirik ma'lumotlarni umumlashtirish va ularning natijalarini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

1. O'smirlik yoshi murakkab bo'lganligi ular ongida etnik xususiyatlarni shakllantirish va singdirishda ijtimoiy muxit va xayot turzining o'rni alohida ahamiyatga egadir. Ayniqsa bu yoshga ta'sir etuvchi etnosdagi o'ziga xos urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, etnopsixologik xususiyatlarni shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

2. O'smirlik yoshidagi krizislar va ularning zamonaviy taraqqiyot jarayonlarini taxlil qilishdagi va ta'lim tarbiyaning o'ziga hosligi ularga nisbatan murakkabroq kechishi va asosan milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar bilan bog'liq xulq-atvor shakllarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar bilan xarakterlanishi aniqlandi.

3. Barqaror-ekstravert va beqaror-ekstravert tipga mansub o'smirlarda milliy etnik xususiyatlarga nisbatan munosabati yuqoriroq ko'rsatkichlarga ega, biroq korrelyatsion tahlil ekstraversiya-introversiya ko'rsatkichlari va moslashuv darajasi o'rtasida ishonchli aloqadorlik mavjudligini ko'rsatmadi. Shuningdek, moslashuv jarayonining murakkabligi neyrotizm darajasining yuqori bo'lishiga olib kelishi aniqlandi.

4. ma'naviy–ahloqiy tarbiya, ijtimoiy munosabatlari xarakteri, oila, maxalla, milliy urf odatlarga ijobiy munosabat motivlarining shakllanishi o'smir ongida milliy g'urur, milliy qadriyatlarni xurmat qilish va o'z millatidan faxrlanish tuyg'ularini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi.

5. Etnik xususiyatlarning zamonaviylashuv darajasining ortishi bilan o'ziga adekvat baho berish, atrofdagi kishilarni qabul qilish va ular bilan nizoga bormasdan me'yorni saqlashga intilish o'smir yoshida alohida ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi.

6. O'smirlarning o'z "Men"ini yuqori qo'yishi va atrofdagilarga tez ta'sirchanlikni ortishi ulardagi milliy etnik xususiyatlarni shakllanishi va moslashuv jarayonining qiyin kechishi o'zini o'zi baholash tizimining pasayishiga, emotsional beqarorlikka, xavotirlanish darajasining yuqori bo'lishiga, nizolarga moyillikning kuchayishiga olib keladi.

Fors mutafakkiri aytganidan, "Har bir millatni rivojlantirish va taraqqiy etishini hohlasang ularning qizlari va onalarini guzal hulq egalari va chiroyli nafosatli bo'lishini ta'minlash zarur". Bu hikmatli so'zlar negizida bir millatning yaralishi va rivoji haqida chuqur ma'no yotadi.

Tavsiyalar

O'smirlik yoshida etnopsixologik jarayonlarga munosabati va ular ongiga etnik xususiyatlarni shakllanishining etnopsixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlab o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi amaliy tavsiyalarni berish uchun imkon yaratdi:

1. O'smirlik yoshida shaxslararo munosabatlarga kirisha olish, yangi sharoit, ijtimoiy rollar va majburiyatlarga moslasha olish, o'zini o'zi nazorat qila bilish malakalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

2. O'smirlarga milliy urf odatlar va milliy qadriyatlar, millat xususida ijobiy xislatlarni shakllantirish, milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar mavzusida turli xil davra suhbatlari, sharoitga qarab xulq-atvor shakllarini o'zgartira olish malakalarini rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Mahalla va xotin-qizlar qo'mitalari, psixologik maslahat markazlari qoshida o'sirlarga psixologik xizmat ko'rsatish, ular bilan milliy urf odatlar, milliy o'zlikni anglash, millat va uni o'ziga xos xususiyatlari millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish, etnik xususiyatlarni shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi to'siqlarni yengish koping-strategiyasini ishlab chiqishda ko'maklashish borasidagi tadbirlarni amalga oshirish, zarur hollarda turli sohadagi malakali mutaxassislarni bu jarayonga jalb etish o'smirlar barqarorligi va mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi.

4. O'smirlar bilan ishlovchi mutaxassislar yoshlar o'rtasida milliy shaxs hayotida milliy urf odatlar, vatanga millatga sadoqatlilik tuyg'ularini shakllantirishning o'rni haqida targ'ibot ishlarini olib borishlari, o'smirlarning o'z millatidan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish, millat ravnaqiga salbiy ta'sir etuvchi turli psixologik xavf solish mumkin bo'lgan psixologik omillarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

5.o'qituvchi insoniyatning bugungi avlodi uchinchi ming yillikda xalqlarning mustakillik, demokratiya, erkinlik, tinchlik, barkarorlik kabi umuminsoniy kadriyatlar ustivor bulgan jamiyat kurish uchun jaxon axamiyatiga molik mexmonlariga asoslanadigan turmush tarzini yuzaga keltirish extiej kuchayishini uz ukuvchilariga, tarbiyalanuvchilariga tushuntirishlari lozim.

6.xozirgi davrda kechaetgan jaraenlar kishilarning kadriyatlarga bulgan munosabati, ishonchini uzgartirmokda. Ular bilan boglik extiejlar, talablar, kizikishlarning xam uzgarib borishiga sabab bulmokda. Bunday sharoitda fanlarni o'qitishda umuminsoniy kadriyatlarga sadokatli bulishini amaliy jixatdan ukuvchilarga yetkazish asosiy vazifalardan biriga aylanishi zarur.

7.umuminsoniy kadriyatlarga oid mavzularni targibot kilishda yurtimiz sivilizatsiyasi tarrakieti va madaniyati rivojining asosiy davrlari, yutuklariga «Avesto», «Kur'on», Xadislar kabi iloxiy kadriyatlarning muxtasar tizimlari baen etilgan manbalarga, Al Xorazmiy, Al Farobiy, Al Beruniy, Ibn Sino, Al Buxoriy, At Termiziy, Yassaviy va Nakshbandiy, Jomiy, Ulugbek, Navoiy, Bobur Mashrablarning buyuk meroslariga aoslanmok lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. – T. “O'zbekiston”, 2005.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.: O'zbekiston, 1998. – B. 15-89
4. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir // “Fidokor” gazetasi, 2000 yil, 8 iyun.
6. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T. “O'zbekiston”, 2005.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – B.23-24.
8. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996.
9. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori-T 1997 y.
10. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li-1992y.
11. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni-T.1997y.
12. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” T.1997 y.
13. Karimov I.A. XXI asr busagasida T., 1997y.
14. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T. “Shark“, 1999.
15. Karimov I.A. Donishmand xalkimizning mustaxkam irodasiga ishonaman. T. 2000 y.
16. Alimov X. Milliylik va ijtimoiy ruxiyat. T. 1992 y.
17. Mamatov M. Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari. T. 1999 y.
18. Xudoyberdiev I. Islom, shaxs va milliy psixologiya. T. 1999 y
19. Sh.R.Barotov, L.Ya.Olimov, R.J.Solieva, E.M.Muxtorov Mentalitet psixologiyasi . T.2008y
20. E.G'oziev “Tafakkur psixologiyasi” 1990.y.
21. E. G'oziev “Menejment psixologiyasi” T. 2001 y.
22. E. G'oziev, R.Toshimov “Psixodiagnostika va amaliy psixologiya” T.2004 y.
23. E.G'oziev, R.Toshimov “Pedagogik faoliyatingizni baholashni uddalaysizmi?” T. 2001 y.
24. N.B.Kamilova “Muammoli o'smir: tashxis, tadqiqot metodlari. T. 2004 y.
25. B.R.Qodirov “Kasbiy tashxis metodikalari to'plami” T. 2003.
26. Z.T.Nishanova “Psixologik xizmat” T. 2006. y.
27. Beruniy Abu Rayxon Tanlangan asarlar. T.1. – T.: 1957.
28. Ibn Sino Falsafiy qissalar. – T.: O'qituvchi, 1963. – B.48.
29. Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O'AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.
30. S. Jalilova “Psixodiagnostika”. T. 2000.
31. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash: (Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma) / – T.: Sharq, 2000. – 112 b.
32. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “Universitet”, 1999. – 96 b.
33. Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning

- psixologik texnologiyasi. – T.: 2000.
34. Usmanova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday qilib rivojlantirish mumkin. – T.: O'zbekiston, 2000. – 23 b.
 35. E.G'oziev «Oliy maktab psixologiyasi» T.. 1997 y.
 36. D.B.Raxmonova Etnopsixologiya.(ma'ruza matni) T.2010
 37. Arutyunyan Yu.V. Etnosotsiologiya. M. 2004.
 38. Bromley Yu.V. Etnos i etnografiya. M. 1999 g.
 39. Stefanenko T.G. Etnopsixologiya. M. 1999 g.
 40. R. S. Nemov "Psixologiya". V. 3 —x knigax. M. 2000.
 41. A. I. Sherbakov "Slovar". M. 1990
 42. A . Sherbakov "Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum". T. 1992.
 43. Yefimova N.S. Psixologiya obsheniya. Praktikum po psixologii: Uchebnoe posobie. – M.: ID "FORUM": INFRA-M. 2006. – 192 s.
 44. Zarochensev K.D., Xudyakova A.I. Eksperimentalnaya psixologiya: Uchebnik. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005. – 208 s.
 45. Psixodiagnostika i proforientasiya v obrazovatelnix uchrejdeniyax / Red. –sost. L.D. Stolyarenko. – Rostov n/D: Feniks, 2005. – 416 s.
 46. Slovar prakticheskogo psixologa // Sost. S.Yu.Golovin. – Minsk: Xarvest, M.: OOO "Izdatelstvo AST", 2003. – S. 314-318
 47. E.G.Goziev. Umumiy psixologiya. Toshkent 2002 yil.
 48. E.G.Goziev, Sh.V. Azizova. Tashkiliy psixologiya. T. 1999 y.
 49. E.G.Goziev, B.Xasanov. Psixologiya muamolari. T.1999.
 50. E.G.Goziev. Shaxs psixologiyasi. 1999.

Internet ma'lumotlari quyidagi saytlardan olinadi:

www.pedagog.uz,
www.google.uz,
www.ziyonet.uz,
www.glef.org,
www.newhorizons.org.

IILOVALAR

MADANIY – QADRIYATLAR YO‘NALGANLIGINI ANIKLASH TESTI

(Pochebut L.G. testi)

Etnopsixologik tadqiqotlar xalqning madaniyatini o‘rganishni ko‘zda tutadi. «Madaniyat» tushunchasi ko‘p qirralidir. Ilmiy adabiyotlarda uning 150 dan ortiq ta’riflari mavjud. Madaniyat etnosning hayot tarzini, qadriyatlarini, e’tiqodini, xulq me’yorlarini, muloqot uslubi va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Etnomadaniy farklar (tafovut)ni tadqiqot qilishda u yoki bu madaniyati sof turini aniqlash juda qiyin, chunki xozirgi paytda aholi migratsiyasi tufayli moddiy va madaniy qadriyatlarning almashuvi (sanoat asarlari, fan va texnika yutuqlari, ommabop tovarlar va boshqalar) natijasida madaniyatlar orasida intensiv o‘zaro kirib ketish jarayoni bo‘lib utmokda.

Takdim qilinayotgan testning muallifi amerikalik psixolog Dj. Tausend. Madaniyat – qadriyatlar yo‘nalganligini aniklash testi – bu o‘rganilayotgan madaniyatning tashkil topishi va shakllanishining asosiy tendensiyalarini aniklash uchun muljallangandir.

Instruksiya. «Xar bir bo‘limda o‘z xalqingizni madaniyatini yo‘nalganligini tasvirlovchi tasdiqni belgilashingizni so‘raymiz. Buning uchun oilangiz, maktab, din sizni nimalarga o‘rgatganini eslashga xarakat qiling. Iltimos javob berish paytida zamonaviy qarashlaringiz, agar sizga o‘rgatganlaridan farq qilsa, ularni inobatga olmang».

1. Mening madaniyatimda qaror qabul qilishda odamlar muxim omil deb

- a) o‘tmishni
- b) xozirni
- v) kelajakni

xisoblaydilar.

2. Mening madaniyatimda odatda odamlar o‘zlarini

- a) tabiiy kuchlarning qurbonimiz
- b) tabiat bilan uyg‘unlikda yashaymiz
- v) ko‘plab tabiiy kuchlarni boshqaramiz

deb xisoblaydilar.

3. Mening madaniyatimda odamlarni boshqarilmasa, ular extimol amalga oshiradilar deb hisoblaydilar.

- a) yomon ishlarni, qiliqlarni
- b) yomon hamda yaxshi ish va qiliqlarni
- v) yaxshi ish va qiliqlarni

amalga oshiradilar deb hisoblaydilar.

4. Mening madaniyatimda odamlar o‘zaro munosabatlarda quyidagilarni eng asosiy deb biladilar.

- a) nasl-nasab va kelib chiqishni
- b) katta oilani
- v) individuallik, shaxs noyobligini

5. Mening madaniyatimda odamlar o‘ylaydilarki,

- a) mavjudlik hayot uchun yetarlidir
- b) shaxsning o‘sishi va rivojlanishi xayotnng eng muhim maqsadidir
- v) amaliy faoliyat va mukammallikka erishish – eng yaxshi maqsad.

Test uchun uch turdagi madaniyatlar borligi haqida tasavvur asos kilib olingan.

Birinchi tur – **An’anaviy madaniyat** (AnM) – insonlarni o‘tmishga yo‘nalganligi, urf-odat, an’analarga sodiqligi, tarixga qiziqishi bilan xarakterlanadi. Bu madaniyat kishilar uchun tabiat – borliq doimiy sir, ya’ni yechib bo‘lmas topishmokdir. Bu topishmokni yechish uchun ular intilmaydilar. Insonga ijtimoiy muxit ixtiyoridagi mavjudot deb qaraladi. Oilaviy aloqalarga, karindosh urug‘chilik munosabatlarining an’analarga, dinga katta ahamiyat beradilar. Bu turdagi

madaniyatda inson ichki ozodligiga yo‘l qo‘yilmaydi. Uning xatti-xarakatlariga, ishlariga xatto uy- fikrlariga ham jamiyat tomonidan qat’iy nazorat amalga oshiriladi. Qaror qabul qilish jarayoni jamoaning ishtirokida bo‘lib o‘tadi, lekin karor natijasida yoshi kattalar ixtiyorida. Inson faoliyati qattiq tartib (reglament)lashtirilgan. Ishdagi muvaffaqiyati va ishga bo‘lgan ijodiy munosabati uchun inson shu topda emas, balki bir-muncha vaqt o‘tgandan so‘ng rag‘batlantiriladi.

Ikkinchi tur – **Zamonaviy madaniyat (ZM)** – insonlarni hozirga, hozirgi zamon voqealariga yo‘nalganligi bilan xarakterlanadi. Insonlar tabiat bilan hamoxang bo‘lishga, uni muxofaza qilishga intiladilar, uning ekalogiyasi bilan qiziqadilar. Inson tabiati qarama-qarshi xodisadek tushuniladi. Bu madaniyatning qadriyatlari inson munosabatlarida, uning xuquqlarida, qiziqishlariga, kobiliyatlarini rivojlantirishga, kashf etishi va mustaxkamlanishiga karatilgan. Insonlar o‘rtasidagi munosabatlar odatda rasmiylashtirilgan, ijtimoiy muxit va tizimdagi roli, tutgan o‘rni bilan aniqlangan. Do‘stona munosabatlar sekin yo‘lga kuyilib, ular chukurligi va bir-birlariga sadokati bilan ajralib turadi. Jamiyat insonlar xulk-atvorini ma’naviy, etnik me’yorlar va koidalar yordamida boshqarishga xarakat qiladilar. Shaxsiy karorlar qabul qilinayotganda mexnat jamoasi, oila, gurux ehtiyojlari, qiziqishlari, kelajakdagi rejalari inobatga olinadi. O‘z faoliyatining natijalari uchun inson asosan moddiy emas, balki ma’naviy rag‘bat (shon-shuxrat, xurmatga sazovor bo‘lish, yutuklarga erishish) olishga xarakat kiladi.

Uchinchi tur – **Dinamik turzda rivojlanayotgan madaniyat (DRM)** – insonlar kelajakka, ulkan natijalarga erishishga yo‘nalganligi bilan xarakterlanadi. Kishilar kiska rejalalar tuzib so‘ng imkoni boricha ularni tezroq amalga oshirishga xarakat kiladilar. Bu madaniyat kishilari uchun «Vakt-bu pul» demakdir. Ular uchun tabiat – jumbok emas. Modomiki hayot – tez va samarali xal kilinishi zarur bo‘lgan muammodir, shuning uchun tabiat insonga buysunishi kerak. Tabiatning hamma sirlari ochilishi, uning rivojlanishi qonunlari o‘rganilgan va bayon qilingan bo‘lishi kerak. Insonning burchi tabiatni boshqarishdan iboratdir. Inson – bu erksevar mavjudot. Individallik, mustakillik, ijtimoiy muxitdan avtonomlik tarbiyalanadi. Karor kabul kilinishi mustakil tarzda o‘tadi. Individual qiziqish va kiymatlarning mohiyati tan olinadi. Mulokotda odamlar samimiy va sofdildir, bunda ular ierarxiyaga emas, balki rolli munosabatlarni tengligiga intiladilar. Jamiyatda uning xar bir aozosi rivojlanishi uchun teng imkoniyatlar yaratish – bu ijtimoiy tan olingan qadriyatdir. Jamatchilik nazoratining asosini belgilab beruvchi axlok emas, balki qonunchilik, jazodan bosh tortmaslik va moddiy rag‘batlantirishning majburiyiligidir. Bu madaniyat kishilarining dikkat xizmat vazifalari va ishlariga karatilgan. Inson tez-tez ongli ravishda o‘zini xizmat, yutuq, progress, moddiy tukislik uchun fido kiladi. Samarali faoliyat birinchi navbatda tez moddiy ragbatlantirishni ko‘zda tutadi.

Testga matematik ishlov berish kiyin emas va bulimlar buyicha respondentlarning javoblarini aniklash kuzda tutiladi. Buning asosida o‘rganilayotgan madaniyat 3 turidan biriga ta’luqli tendensiyasi haqida xulosa qilinadi. Ommaviy surovnomma o‘tkazish paytida ishonchli va reprezentiv ma’lumotlar olish mumkin.

K A L I T

Bulim rakami	AnM	ZM	DRM
1	A	B	V
2	A	B	V
6	A	B	V
4	A	B	V
5	A	B	V

EMPATIYA TESTI

(I.M.Yusupov so'rovnomasi)

Empatiya – bu o'zgalarning kechinmalariga shunday emotsional javobki, qaysiki rahmdillik va hamdardlikda namoyon bo'ladi.

Hamdardlik bildirilayotganda birodarining emotsional javobi uzgacha kechayotgan xissiy xolat bilan mosligi va bu moslikka uzaro xissiy xolat kechirilishini ongli ravishda tushunish orkali erishish mumkin.

Empatiyaga shu narsa xoski tirik, anik, mavjud, borliqqa balki san'at asarlaridan (rassomchilik, badiiy adabiyot, kino, teatr) aks etgan obrazlarga nisbatan ham kelib chikadi.

Etnopsixologik tadqiqotlarda turli millat vakillari empatiyasining yo'nalganligi va darajasini o'rganish ular o'rtasidagi aloqani o'rnatish va mustaxkamlash uchun hamda millatlararo mulokot va hamkorlikni samarasini olish uchun muxim.

Instruksiya:

«Sizga bir necha tasdiqlarni baholash tavsiya etiladi. Sizning javoblaringiz yaxshi yoki yomon deb baholanmaydi. Shuning uchun sizdan samimiy ochik bo'lishingiz iltimos qilinadi». Javob ustida uzoq o'ylanmang. Aniq, ishonchli javoblar bu xayolingizga kelgan birinchi fikrdir. Savolnomadagi tasdiqni o'qib bo'lganingizdan so'ng uni tartib raqamiga muvofiq keltirilayotgan 6 ta javob variantlaridan birini javob varaqasida belgilab qo'ying: «bilmayman», «yo'q, xech qachon», «onda -sonda «ba'zan», «ko'pincha», «deyarli xar doim», «xa, xar doim». Xech bir savolni utkazib yubormaslik kerak emas.

1. Menga «mashxur kishilar xayotidan» kitoblar, seriallardan kuprok sayoxatlar tugrisidagi kitoblar yokadi?
2. Kattalarning yoshi kattarok bolalari tugrisidagi gamxurligi ularni gazablantiradi?
3. Uzgalarining muvofakkiyati va muvofakkiyatsizlik sabablari tugrisidagi muloxaza yuritish menga yokadi?
4. Barcha musikali kursatuvlar orasida «zamonaviy oxanglarni» afzal kuraman?
5. Bemorning ortikcha injikliklarini va urinsiz (noxak) tanalariga chidash kerak, agar ular yillarga chuzilsi ham?
6. Bemor insonga suz bilan ham yordam berish mumkin.
7. ikki shaxs orasidagi mojaroga (konfliktga) begona odamlar aralashmasligi kerak.
8. Keksa odamlar, rostdanam, sababsiz serzarda, (jizzaki) kutarmaydilar.
9. Bolalik chogimda kayguli xodisalar tugrisida eshitsam, kuzlarimga uz uzidan yosh kelar edi.
10. Ota - onamning asabiylashgan xolati mening kayfiyatiga ta'sir etmaydi.
11. Men uz adresimga bo'lgan tandikga beparvolik bilan karayman.
12. Menga manzarali suratlardan kura portretlarni tomosha kilish kuprok yokadi.
13. Men ota onamni doimo kechirganman, garchi ular noxak bulsalar ham.
14. Agar ot yomon tortsa, uni savalash kerak.
15. Kachon insonlar xayotidagi dramatik vokealar tugrisida ukisam, xuddi bular men bilan sodir bulayotganday xis kilaman.
16. Ota onalar uz bolalariga adolatlidirlar.(adolat bilan karaydilar).
17. Usmirlar yoki kattalarning janjallashayotganlarni kursam, men aralashaman.
18. Men uz ota onamning yomon kayfiyatlariga e'tibor bermayman.
19. Men boshka ishlarni bir chetga yigishtirib kuyib, uzok vakt kushlar va xayvonlar xatti - xarakatlarini kuzataman.
20. Fakat jiddiy bulmagan odamlarning kuzidan filmlar va kitoblar yosh keltirishi mumkin.
21. Menga begona odamlarning xulk - atvorini va yuzidagi imo-ishoralarini kuzatish yokadi.
22. Bolaligimda men uyga daydi it va mushuklarni olib kelardim.
23. Barcha odamlar asossiz gazablanadilar.
24. Begona odamga karab, uning xayoti kanday shakllanishini oldindan aniklagim keladi.

25. Jaroxatlangan xayvonni kurishim bilan men unga nima bilandir yordam berishga urinaman.
 26. Bolaligimda mendan yoshrok bolalar ortimdan soyadek yurishardi.
 27. Odam uzini yengil sezadi, agar uning xasrati diqqat bilan tinglansa.
 28. Kucha xodisalarini ko'rganimda, men guvoxlar katoriga kirib kolmaslikka xarakat kilaman.
 29. Yoshlarga, men taklif etadigan takliflar, ishlar va kungil ochar uyinlarim yokadi.
 30. xayvonlarning uz egasining kayfiyatini sezish kobiliyati borldigini odamlar oshirib yuboradilar.
 31. Kiyin ziddiyatli vaziyatlardan odam uz kuchi bilan (mustakil) chikib ketishi kerak.
 32. Agar bola yiglasa, demak, uning uziga yarasha sababalari bor.
 33. Yoshlar doim keksalarning xar kanday iltimos va injikliklarini kondirishlari kerak.
 34. Nega ba'zi odamlar, sinfdoshlarim goxo xayolchanligini men tushunishni istardim.
 35. Daydi uy xayvonlarini yukotish kerak.
 36. Agar mening dustlarim uz muammolarini men bilan muxokama kilishna boshlashsa, men su'batni boshka mavzuga kuchiraman.
- Agar ishlash jarayonida sinaluvchilarda kandaydir savollar paydo bo'lib kolsa, tajriba utkazuvchi tushuntirib berishi kerakki sinaluvchi bundan u yoki bu javobga yo'naltirilmasligi kerak.
- Surovnoma 6 ta diagnostik empatik shkalani uz ichiga olgan: ota – onalar empatiyasi, xayvonlar bilan empatiya, kariyalar bilan empatiya, bolalar bilan empatiya. badiiy asar kaxramonlari empatiyasi, begona va kam taniydiganlar bilan empatiya.
- Testga ishlov berish jadvali

Shkala	Tasdiklovchi nomer
Ota onalar bilan empatiya	10,11,13,16,18,31
xayvonlar bilan empatiya	14,19,22,25,30,35
Kariyalar bilan empatiya	2,5,6,8,27,33
Bolalar bilan empatiya	9,17,26,29,32,34,
Badiiy asar ka'ramonlari bilan empatiya	1,4,12,15,20,23,
Begona yoki kam taniydigan odamlar bilan empatiya	5,7,21,24,28,36

Matematik ishlov berish: Avval olingan ma'lumotlarning xakkoniyligini aniklash kerak. Buning uchun xisoblab chikiladi: «Bilmayman» (2,4,16,18,33) javobi «xa, xar doim» (2,7,11,13,16,18,3) tasdik nomerlariga kancha javob berilganligi. Bundan tashkari «xa xar doim» turidagi javoblar 7 va 17, 10 va 18, 17 va 31, 22 va 35, 34 va 36 juftliklarda shkala tasdiklarda necha marta olinganligi, «doim yoki xa» turiga necha marta javob olingan tasdiklarning biridan, «xech kachon yoki yuk» turidan boshka uchun kuyidagi juftliklardan 3 va 36, 1 va 3, 17 va 28 lardagi javoblar.

Keyin natijalar xisoblab chikiladi.

Agar umumiy xisob yigindi 5 ga teng yoki katta bulsa, bunda tadkikot natijalari xakikiy emas, yigindi 4 ga teng bulsa, natija shubxali, agar yigindi 3 dan yukori bulmasa, tadkikot natijalari anik deb topiladi.

Xakikiy natijalar olingan keyinchalik ishlov berilgan ma'lumotlar empatiyaning son kursatkichlari olinadi va uning saviyasini aniklash uchun yuboriladi. Jadvaldan foydalangan xolda, empatiyaning umumiy xarakteriskasini olish mumkin.

«Bilmayman», «xech kachon», «yuk», «onda-sonda», «kupincha», «deyarli xar doim», «xa yoki xar doim» variantlarining javobi sonli kiymati tenglashtirilgan 0,1,2,3,4,5,

So'ngra shu jadvalning ikkalasidagi empatiya saviyasi 'amma 5 shkalasi buyicha aniklanadi.

Empatiya	Ballar soni
Juda yukori	butunlay
Yukori	82-90
Urtacha	63-81
Past	12-36
Juda past	5-11

Mentalitet psixologiyasi fani bo'yicha psixologik lug'at

Mentalitet (ing.mentality-o'ziga xoslik) -psixik xususiyatlar, sifatlar va jarayonlarning o'ziga xos tuzilishi, yig'indisi, shaklini anglatuvchi umumlashgan tushuncha.

Milliy test normalari (ing.test-sinov,norma-o'lchov)-standartlashtirilgan normalar, ular testlarning mezonlarini hisobga oladigan va milliy tus beradigan normalardir.

Milliy his-tuyg'ular-milliy an'ana, urf-odat, qadriyatga asoslangan hislar tizimi.

Milliy o'z-o'zini anglash-o'z milliyligini anglash, milliy qadriyat va urf-odatlarga hurmatda bo'lish.

Oila- turmush ko'rish, qarindosh urugchilik, asosida ko'riladigan kichik guruh.

Ong – psixologiyaning asosiy tushunchalaridan biri. Insonni voqelikni tafakkurida aks ettirish qobiliyatini aniqlaydi. Psixikaning oliy, uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib, kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan

(til yordamida) muloqot qilish jarayonida shakllanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari natijasi. Ong tarkibiga uning psixologik ta'rifi-ong, sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi farqlanishi,kishining maqsadni ko'zlovchi faoliyati va muayyan munosabatlar kiradi.